Хулоса қилиб айтганда, ҳозирда фермер хўжаликларини замонавий техника ресурслари билан таъминлаш зарур. Доимо ташкилий ишларни такомаллаштириш, иш унумдорлигини ошириш, қўл кучи билан бажариладиган ишларни камайтириш зарурлиги ортмоқда. Бундай ишларни машиналар зиммасига юклаш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг таннархини пасайтириш энг долзарб вазифалардан ҳисобланади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Большов Т.С., Мансуров Р.А., Сергеев В.А. Мелиорация машинадары. – Тошкент, Ўқитувчи, 1989. – Б. 96.
2. Маткаримов К.Ж., Маҳмудов В.Ж., Норқулов А.А.. Автомобилларда ишлатиладиган ашёлар. – Тошкент, Талқин, 2009. – Б.55.



**YENGIL ATLETIKACHILARNI JISMONIY TAYYORLASHDA  
RIVOJLANTIRUVCHI-MASHQLANTIRUVCHI TA'SIRLARNI  
ASTA-SEKIN OSHIRIB BORISH TAMOYILINING O'RNI**

**Abuxakimova Nargiza Sobitovna, Matyakubova Noila Poziljon qizi**

Namangan davlat universiteti magistrantlari

**ANNOTATSIYA**

Ushbu tamoyil shug'ullanuvchilarda vazifalarni mukammallashtirish hamda yuklamalarni oshirish hisobiga harakat va u bilan bog'liq bo'lgan psixik faoliyatlarini namoyon qilishga bo'lgan talablarni muntazam ravishda oshirib borish zaruriyatini belgilab beradi.

**Kalit so'zlar:** rivojlantiruvchi-mashqlantiruvchi, tamoyil, asta-sekinlik.

**THE ROLE OF THE PRINCIPLE OF GRADUALLY INCREASING  
DEVELOPMENTAL AND TRAINING EFFECTS IN THE TRAINING OF  
ATHLETICS ATHLETES**

**ANNOTATION**

This principle determines the need to regularly increase the requirements for the demonstration of movement and mental activities related to it due to the improvement of tasks and the increase of loads.

**Key words:** development-training, principle, gradualness.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga katta etibor qaratildi. Ma'nnaviy-marifiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an'analar tiklandi, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport bilan bog'liq ko'pgina tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni<sup>1</sup> buning yorqin dalili sifatida keltirish mumkin. Umumta’lim maktablarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘rnini juda ham ahamiyatli bo‘lib, ushbu mashg‘ulotlar mакtab o‘quvchilariga bazaviy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish uchun hizmat qilmoqda.

Inson organizmning funksional faoliyatiga qo‘yiladigan talablar muntazam ravishda oshirib borilsagina, jismoniy sifatlar yuqoriga o‘sib boradi. Kuch, chidamlilik va boshqa jismoniy sifatlarning rivojlanishi mexanizmlari asosida organizmning jismoniy yuklamalarga javoban funksional moslashishga xos o‘zgarishlari yotadi. Optimal yuklamani tanlab olish juda muhimdir, ya’ni organizmning moslashish reaksiyalarini keltirib chiqaruvchi minimal yuklama shiddatini bilish lozim. Bundan shiddatliroq ta’sir o‘ta zo‘riqishga yoki, talablar keskinlashsa, organizmning me’yordagi faoliyatining tuzilishiga olib keladi. Aniqlanishicha, masalan, endi shug‘ullanayotgan sportchilarda o‘rtacha katta va kattaga yaqin og‘irliklar bilan mashq bajarganda ham kuch o‘sadi. Ushbu holda katta yuklama ko‘tarishga tayyor bo‘lmagan tizimlar va organlarning (yurak-tomir tizimi, tayanch-bo‘g‘im apparati) o‘ta zo‘riqishi oldini olish maqsadida kattaga yaqin va katta yuklamalarni qo‘llashdan ma’no yo‘q. Aytish lozimki, yuqori yuklama turli organlar tizimlariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan ba’zi birlari yuqori yuklamaga nisbatan oson va tez bardosh bera oladi, boshqalari – aksincha. Bunda funksional o‘zgarishlar tezroq, morfologik o‘zgarishlar sekinroq kechadi. Jismoniy yuklamalarni oshirish dinamikasi organizmdagi ayrim tizimlarning geteroxron tarzda moslashish darajasi va xususiyatiga mos bo‘lishi kerak.

Harakatlarni takomillashtirish uchun o‘qitish jarayonida nafaqat texnik usullarning detallarini muntazam takomillashtirib borish, balki shug‘ullanuvchilarning jismoniy (kuch, tezkorlik, egiluvchanlik va h.k.)

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni

imkoniyatlarining o'sib borishi sababli harakat texnikasini ham asta-sekin o'zgartirib borish xosdir.

Harakat malakalarini takomillashtirish asosida malakalarni amalga oshirish shartlari, har safar o'zgarib turadigan talablarga mos turli xil funksional tizimlarni hosil qilish jarayoni yotadi. Demak, bu tizimlarni hosil qilishning asosiy sharti – o'rganilgan harakatlarni oshirish bo'yicha talablar va vazifalarni muntazam o'zgartirib borish hamda murakkablashtirishdir. Ko'rsatib o'tilgan yo'l bilan harakat malakalarini muvaffaqiyatli va uzoq vaqt takomillashtirish ularning asosini mustahkamlab borish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda biz takomillashtirish maqsadlarining o'zgaruvchanligi, harakat malakasidan foydalanishda uning ishonchlilagini ta'minlash uchun erishilgan darajaning barqarorligi kabi dialektik qarama-qarshiliklar birligi bilan to'qnashamiz. O'qituvchining bunday mahorati qarama-qarshilikni to'g'ri hal eta olishidadir.

### **Xulosa**

Shunday qilib, rivojlantiruvchi-mashqlantiruvchi ta'sirlarni asta-sekin oshirib borish tamoyili topshiriqlarni qiyinlashtirib borish bilan ularni ko'paytirishni hamda rejali yangilab borishni, organizmning funksional imkoniyatlari o'sib borgani sayin yuklamalar hajmi va shiddatini oshirishni nazarda tutadi.

### **Foydalanilanish uchun adabiyotlar:**

- 1.A.Abdullaev. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik. (1-jild)/Toshkent/ "Navro'z" nashriyoti, 2017. – 392 bet.
- 2.R.S.Salomov Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA-PRESS», 2014. – 296 bet.

**“ELEKTROMAGNIT INDUKSIYA QONUNI” MAVZUSINI O‘QITISHDA  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH  
METODIKASI**

**Ataxonov Jaloliddin Faxriddin o‘g‘li**

Urganch davlat universiteti uchunchi bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Bu ishda o‘quvchilarga “Elektromagnit induksiya” qonunini tushuntirishda yangi pedagogik texnologiyalardan xususan ma’ruza mashg‘ulotlarida “Insert” va amaliy mashg‘ulotlarda “ Galereya bo‘ylab aylanish” va “Har kim har kimga o‘rgatadi” laboratoriya mashg‘ulolarida “Bumerang” interfaol metodidan foydalanish mumkin. Ma’ruza mashg‘ulotlarida “Insert” interfaol metodini qo‘llash orqali talabalar mavzuning tub mohiyatini tushunib yetishi mumkin. Xususan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarda “Galereya bo‘ylab aylanish” va “Har kim har kimga o‘rgatadi ”, “Bumerang” interfaol metodlaridan foydalanish talabalarda mavzuni to‘liq o‘zlashtirish imkonini beradi.

**Аннотация**

В данной работе используются новые педагогические технологии для объяснения студентам закона «Электромагнитной индукции», в частности, на лекционных занятиях метод «Insert», на практических занятиях метод «Galereya bo‘ylab aylanish» и на лабораторных занятиях метод «Har kim har kimga o‘rgatadi». А также можно использовать интерактивного метода «Bumerang». Студенты используя интерактивный метод «Insert» во время лекций, могут понять суть темы. В частности, использование интерактивных методов «Galereya bo‘ylab aylanish» и «Har kim har kimga o‘rgatadi», «Bumerang» на практических и лабораторных занятиях позволяет студентам полностью освоить предмета.

### Annotation

In this research new pedagogical technologies can be used to explain the law of "Electromagnetic induction" to students, in particular, the interactive method "Bumerang", in lecture, "Insert" in practical classes, "Galereya bo'yab aylanish" and "Har kim har kimga o'rgatadi" in laboratory classes. Students will be able to understand the essence of the topic by using the interactive method "Insert" in lectures.. In particular, the use of interactive methods "Galereya bo'yab aylanish", "Har kim har kimga" and "Bumerang" in practical and laboratory classes allows students to fully master the topic.

**Kalit so'zlar:** induksiya, elektromagnit induksiya qonuni, magnit maydon, lens qoidasi, Magnit oqim.

**Ключевые слова:** индукция, закон электромагнитной индукции, магнитное поле, правило Ленца, магнитный поток.

**Key words:** induction, law of electromagnetic induction, magnetic field, Lenz's rule, magnetic flow.

Ta'limgarayoniga interfaol metodlar bilan birgalikda axborot texnologiyalarini foydalanib o'qitish metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarining takomillashuviga olib keladi.

Hozirgi kunda jamiyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Zamon talabi shunday ekan, o'qituvchi ham o'z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida oshirib borish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'z muhitida axborot ob'ektlarini ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlantiradi.<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> 1. Maxamatrasul Jo'rayev. "Fizika o'qitish metodikasi" // Toshkent 'Abu Matbuot-Konsalt" 2015.

Boshqa ijtimoiy-gumanitar, tabiiy va umumkasbiy fanlar qatori, “Fizika” fanini ham o‘qitishda foydalaniladigan interfaol metodlar guruhiga o‘qitishning muammoli – izlanish metodlari, mantiqiy metodlar, mustaqil ishlash metodlari, talabalar faoliyatini rag‘batlantirish va asoslash metodlari, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari kiradi<sup>3</sup>. Shuning uchun “Elektr va magnetizm” kursining muhim va qiziqarli mavzularidan “Elektromagnit induksiya qonuni” mavzusidan ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini yaratish ishning maqsadi hisoblanadi.

Ushbu mavzu bo‘yicha maruza mashg‘uloti quyidagi reja bo‘yicha o‘qitiladi:  
 1.Elektromagnit induksiya hodisasi. 2.Induksiya elektr yurituvchi kuch. 3. Faradey qonuni. 4.O‘zinduksiya hodisasi. 5.O‘zinduksiya E.Yu.K 6.Induktivlik.

An’anaviy ta’limdan farqli zamonaviy ta’limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek o‘quvchilar faoliyati, bilimini nazorat qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash fizika fani o‘qituvchisidan katta pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida o‘quvchilarning ilmiy faoliyatini, ijodkorligini oshiruvchi va shu bilan bir qatorda ta’lim-tarbiya jarayoninig samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan. Shu tajriba asosini tashkil qiluvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilib, bu metodlarni dars jarayoniga qo‘llay bilish bugungi zamon fizika o‘qituvchisi zimmasiga yuklatilgan yuksak vazifadir.Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatli loyihalanishi va yakuniy natija(samara)ning kafolatlanishi o‘qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasi va darsda ularni to‘g‘ri baholay olishiga bog‘liqdir. Har bir o‘tiladigan darsda ta’limning aniq

2. Sh.M. Mirziyoyev, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”, Toshkent sh., 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son


<sup>3</sup> 3. Abdullayev G.A. Fizika. “O‘qituvchi” -1989.

4. Sadreddinov N., Rahimov A., A.Mamataliyev, Z.Jamalova. Fizika o‘qitish uslubi asoslari. T.: O‘zbekiston-2005

maqsadining belgilanishi o‘qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi.

Dars davomida Internet tarmog‘idan foydalanib, elektrromagnitning magnit induksiya chiziqlarining yo‘nalishi, “Berk konturda yuzaga keuvchi IEYuK” ni aniqlash imkonini beruvchi animatsion fayldan foydalanish mumkin (1.rasm). Ushbu animatsion faylda doimiy magnitni turli xil yo‘nalishda harakatga keltirish va berk konturning o‘ramlari sonini o‘zgartirib berk konturdagi induksiya elektr yurituvchi kuchni hamda induksion tok miqdorini aniqlash imkonini beradi<sup>4</sup>.

Ma’ruza mashg‘uloti davomida talabalarga “Insert” (belgi qo‘yib o‘qish) metodidan foydalanishni taklif qilsa bo‘ladi. “Insert” metodi bu matnni belgi qo‘yib o‘qishdir.



*1.rasm. Elektromagnit induksiya qonuni uchun*

*Faradey tajribasi*

Belgilar quyidagi tartibda qo‘yiladi. O‘qish davomida tugallangan ma’lum mazmunga ega bo‘lgan gap oxirida (qator oxirida) qo‘yiladi. Belgilar quyidagicha tanlanadi.

“+” belgisi qo‘yiladi agar o‘qiganlari tushunarli bo‘lsa. Yangilik ola bilgan bo‘lsa “V” belgisi qo‘yiladi. Agar o‘qiganlari tushunarsiz, fikriga qarshi bo‘lsa, “?” belgisi qo‘yiladi. Agar o‘qiganlari yuzasidan savoli bo‘lsa, tushunmasa “–“ belgisini qo‘yadi.

<sup>4</sup> 5.I.V. Savelyev, “Umumi fizika kursi II tom”, “O‘qituvchi” -1975

6. S.G. Kalashnikov, “Elektr”, “O‘qituvchi” -1979

O‘qitish davomida talaba quyidagi jadvalni daftariga chizib matn bo‘yicha mos qismiga yozishi lozim.

| + | V | ? | - |
|---|---|---|---|
|   |   |   |   |

Insert metodidan darsning yangi mavzuni o‘rganish bosqichida foydalanish lozim. Ushbu metodni o‘zlashtirish uchun quyidagi tayanch atamalar va iboralar qo‘llanilishi mumkin: elektromagnit induksiya xodisasi, induktivlik, magnit oqim, Lens qoidasi, magnit induksiya, elektromagnit induksiya qonuni, induksion tok,

“Elektr va magnetizm” kursidan taqvim rejada ushbu mavzudan amaliy mashg‘ulotlariga 2 soat ajratilgan.

1- amaliy mashg‘ulot. 1) Qur'a tashlash yo‘li bilan guruh har bir guruhchada 6 o‘quvchidan 4 ta kichik guruhchalarga ajratiladi. 2) O‘quvchilar har biri 6 ta masaladan iborat variant savollarini olishadi. 3) Har bir kichik guruh o‘quvchilarini bir xil ruchkada javob beradilar. 4) Har guruhning varaqlarida sana, guruhning nomeri, pedagogik texnologiya nomi, shu guruhda ishtiroy etadigan o‘quvchilarning ismi, sharifi yoziladi. 4) Har bir guruh 50 daqiqa davomida o‘z savollariga o‘zlarining ruchkalarida javob beradilar. 5) Har bir guruh oldingi guruh javobini baholaydi, agar javob to‘la bo‘lmasa, javobni o‘z ruchkasi bilan to‘ldiradi yoki javob noto‘g‘ri bo‘lsa, o‘zining o‘z variantini taklif etadi. Bu bosqichga xam 10 daqiqa vaqt beriladi. 6) Nazorat tugagach, jami 60 daqiqadan keyin varaqlarda har xil rang bilan yozilgan javoblar bo‘ladi va ishlari o‘qituvchiga topshiriladi. 7) O‘qituvchi hamma qatnashchilar natijalarini umumlashtiradi va o‘quvchilar ishlari baholaydi. Kamchiligi guruhlar bir xil kuchli bo‘lmasligi mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlarda “Har kim har kimga o‘rgatadi” metodi-o‘quvchilarga o‘qituvchiga aylanish ma’lum bilimlarni o‘zlashtirgach, o‘rtoqlari bilan bahan ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish usuli hisoblanadi. Bu usul yordamida o‘quvchini o‘qishga bo‘lgan qiziqishi oshadi va olgan bilimlarini yanada mustahkamlab oladi. Bu metoddan biz amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llasak dars samaradorligi oshadi. Amaliy mashg‘ulotlarida yaxshi biladigan o‘quvchilarga o‘zlashtirishi qiyinroq yoki sekinroq bo‘lgan o‘quvchilar biriktiriladi va o‘quvchilar bir-birlariga amaliy

mashg‘ulotdagi masalalarini yechishni o‘rgatadilar. Amaliy mashg‘ulotlarda yechiladigan masalalar fizikaning boshqa bo‘limidagi masalalarga qaraganda bu bo‘limida ko‘roq va murakkabroq. Shuning uchun o‘quvchilar birgalikda ishlasa dars samaradorligi oshadi.

Shunday qilib, “Elektomagnit induksiya” qonunini mavzusini o‘qitishda maruza mashg‘ulotlarida “Insert” metodini, amaliy mashg‘ulotlarida esa “Galereya bo‘ylab aylanish”, “Har kim har kimga o‘rgatadi” va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun “Bumerang” interfaol metodlarini qo‘llash o‘quvchilarga mavzuni tub mohiyatini tushuntirishda yaxshi samara beradi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi.

Mavzuni o‘quvchilarga yetkazib berish uchun ya’ni natijaga erishish uchun kompyuter yordamida turli dasturlar bilan ishslash, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlardan va turli animatsion madellardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maxamatrasul Jo‘rayev. “Fizika o‘qitish metodikasi” // Toshkent ‘Abu Matbuot-Konsalt” 2015.
2. Sh.M. Mirziyoyev, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”, Toshkent sh., 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son
3. Abdullayev G.A. Fizika. “O‘qituvchi”-1989.
4. Sadriddinov N., Rahimov A., A.Mamadaliyev, Z.Jamalova. Fizika o‘qitish uslubi asoslari. T.: O‘zbekiston-2005
5. I.V. Savelyev, “Umumiy fizika kursi II tom”, “O‘qituvchi” -1975
6. S.G. Kalashnikov, “Elektr”, “O‘qituvchi” -1979

## **DONLARNING GURUHLANISHI: BOSHOQLI VA DUKKAKLI EKINLARNING TAVSIFI**

**Qodirova Shahlo Ilhomjon qizi**

Fargona Politexnika instituti

Kimyo-texnologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada donlarning guruhlanishi, ya’ni botanik ozuqaviy hamda qaysi maqsadda ishlatalishi, boshqoli va dukkakli ekinlarning tavsifi xususida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** don, boshqoli ekinlar, dukkakli ekinlar, bug‘doy, javdar, ozuqaviy qiymat, efir- moyli urug‘lar, botanik qiymat.

Don ekinlarini asosan uch belgilari bo‘yicha guruhlarga ajratiladi: botanik, ozuqaviy qiymati va qaysi maqsadda ishlatalishiga qarab.

Botanik xususiyatlari ko‘ra don ekinlari asosan uch guruhga bo‘linadi: boshqoli, dukkakli va grechixa ekinlari. Asosiy boshqoli ekinlarga bug‘doy, javdar, makkajo‘xori, sholi, arpa, tariq va suli kiradi. Dukkakli ekinlar oilasidan oziq-ovqat ahamiyatiga ega bo‘lganlari no‘xat, loviya, mosh, yasmiq, soya hisoblanadi. Uchinchi guruhga kiruvchi don ekini grechixa hisoblanadi.

Donlarning ozuqaviy qiymatiga qarab esa ularni to‘rt guruhga bo‘lishadi.

Kraxmalga boy don ekinlari. Bularning tarkibida kraxmal miqdori 50-80% ni tashkil etadi. Bu guruhga bug‘doy, javdar, suli, arpa, tariq, makkajo‘xori, guruch va grechixa donlari kiradi.

Oqsillarga boy dukkakli ekinlar. Bu dukkakli ekinlari doni tarkibida oqsillarning miqdori 22-32% ni tashkil etadi. Ba’zi birlarida esa, masalan soyada oqsil miqdori 50% gacha bo‘lishi mumkin.

Yog‘ga boy moyli urug‘lar. Bu urug‘lar tarkibida yog‘lar miqdori 20-60% tashkil etadi. Bularga kungaboqar, soya, yeryong‘oq, paxta, raps, kunjut kabi urug‘larni kiritish mumkin.

Efir-moyli urug‘lar. Bu urug‘lar tarkibida moylardan tashqari ma’lum miqdorda (0,5-0,6%) efir moylari bo‘ladi. Bularga koriandr, zira, ukrop, shalfey kabi urug‘larni kiritish mumkin.

Qaysi maqsadda ishlatilishiga qarab don va urug‘larni un, yorma olinadigan, yem ishlab chiqarishga mo‘ljallangan va texnik maqsadlarda ishlatiladigan guruhlarga ajratiladi.

Bug‘doy. Bug‘doy asosan non sanoatida ishlatiladigan asosiy boshqoli ekin hisoblanadi. Dunyoda ekin maydonlari va ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha bug‘doy boshqa boshqoli ekinlar ichida birinchi o‘rinni egalaydi.

Respublikamizda ham bug‘doy yetishtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda ham g‘alla ekin maydonlarining asosiy qismini bug‘doy ekinlari tashkil etadi. Bu borada keyingi yillarda Andijon g‘allachilik institutida bug‘doyning serhosil navlarini yaratish borasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari alohida diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda dunyo miqyosida katta hajmda bug‘doy yetishtirayotgan mamlakatlar qatoriga Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Kanada, Avstraliya, Argentina, Italiya, Fransiya, Qozog‘iston kabi mamlakatlarni kiritish mumkin.

Ekish muddatiga qarab bug‘doy bahorgi va kuzgi bug‘doylarga bo‘linadi. Bug‘doy botanik xususiyatlariga, ya’ni poyasining tuzilishi, shakli, poyada boshoqlarning joylashishi, tashqi ko‘rinishi va boshqa belgilariga qarab 22 ta turga bo‘linadi. Shulardan ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lganlari yumshoq va qattiq bug‘doy hisoblanadi. Yumshoq bug‘doy dunyo miqyosida va bizning Respublikamizda ham eng ko‘p miqdorda yetishtiriladigan bug‘doy turi hisoblanadi. Yumshoq bug‘doyning konsistensiyasi (zichlik darajasi) shishasimon bo‘lib, doni dumaloq yoki oval shaklida, murtak tomonga sal kengaya borgan bo‘ladi. Don sirtida aniq ko‘rinib turadigan tuklari va chuqurgina ariqchasi borligi bilan ajralib turadi. Bu tur bug‘doylarning doni oq, qizil yoki sariq rangda ham bo‘lishi mumkin.

Qattiq bug‘doy yumshoq bug‘doydan birmuncha farq qiladi. Uning poyasi zich, donlari uzunchoq shaklda, tuklari deyarli bilinmaydi, ariqchasi don ichiga kam kirib turadi. Donning kesimi ko‘pchilik hollarda shishasimon, tiniq bo‘ladi. Bunday bug‘doylarda oqsil, qand va mineral moddalarning miqdori yumshoq bug‘doydagiga qaraganda nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Qattiq bug‘doydan tayyorlangan unlar asosan makaron mahsulotlari ishlab chiqarish-da ishlatiladi va ulardan yumshoq bug‘doy tortilgan unlarning nonboplik xususiyatlarini yaxshilash maqsadida ham foydalanish mumkin bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Нормахматов Р. Озиқ-овқат маҳсулотлари товаршунослиги. Тошкент, «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош муҳаррияти, 2002.
2. Нормахматов Р., Вакил М.М. Ценность плодов хурмы. Ж. Сельское хозяйство Узбекистана, 1998, №1, с. 22-23.
3. Нормахматов Р. Абрикосы и персики – источник каротина. Ж. Сельское хозяйство Узбекистана, 1998, №5-6, с. 47.
4. Нормахматов Р. Макро и микроэлементы в плодах граната и хурмы Узбекистана. Ж. Хранение и переработка сельхоз сырья, 2001, №6, с. 37-38. Российская Академия сельскохозяйственных наук.
5. Нормахматов Р., Отамурадов К.О., Ахмеджанова Ф.А., Мальсудов Т.М. Товаршунослик. Тошкент, Меќнат, 2004 й.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **SPORT SOHASIDA MARKETING KONSEPSIYASINING AHAMIYATI**

**Toshmurodov Abdurauf**

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishning strategik marketing konsepsiyasini shakllantirish va ilmiy asoslashga bag‘ishlangan. Shu bilan birga sport tashkilotlari reklama faoliyatining asosiy yo‘nalishlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** infratuzilma, sport industriyasi, sport xizmati, sport marketingi, marketing konsepsiyasi, marketing strategiyasi, professional sport, reklama, reklama faoliyati, marketingli baholash, innovatsiya.

### **KIRISH**

Iqtisodiyotdagagi tarkibiy o‘zgarishlarda ijtimoiy soha va uning infratuzilmasini rivojlantirishda sport industriyasi jahon standartlariga javob beruvchi zamonaviy tashkilotlar bilan birga izchil rivojlanayotgan sohadir. Jismoniy tarbiya va sport xizmatini ko‘rsatish tashkilotlarining iqtisodiy samaradorligi haqida so‘z yuritilganda ularning aholi turmush darajasi va sog‘lomlashtirish muhitini oshirishdagi ahmiyatiga nisbatan baho berilishi, jismoniy tarbiya va sport xizmatini ko‘rsatish tashkilotlarida marketingning maqsadli strategiyasini ishlab chiqish texnologiyasini ilmiy asoslash va uning optimalligi haqida so‘z yuritish maqsadga muvofiq. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilinishi mazkur sohani rivojlantirish nechog‘li dolzarb ekanligidan dalolat beradi [1].

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Tahlillarning ko‘rsatishicha, O‘zbekiston sport sohasi bozorida mazkur holat, eng avvalo, sport xizmatlari bozorida samarali raqobat muhitining shakllantirilmaganligi, davlat-xususiy mulk hamkorligida marketingning maqsadli

strategiyasi uchun zarur bo‘lgan asosning yaratilmaganligi, trenerlar, o‘yinchilar, hakamlar va boshqa sport tashkilotlari sub’ektlari uyushmasining mavjud emasligi, sport sohasi faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari ishlab chiqilmaganligi oqibatida vujudga kelgan.

Sport marketingi tashkilotlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, bozordagi brendni yanada kuchaytirishga, mustaqil daromad topish manbalarini izlashga, reklama faoliyati samaradorligini oshirishga, mijozlarga nisbatan alohida yondoshuvni amalga oshirish, raqobatbardosh sport maxsulotlarini ishlab chiqarishga, ularni nafaqat ichki iste’mol bozoriga, balki tashqi bozorlarga ham chiqarishga yordam beradi [2].

Bunda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha aholining turmush darajasi va sog‘lomlashtirish muhitini oshirishdagi ahamiyatiga nisbatan baho berilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun jismoniy tarbiya va sport xizmatini ko‘rsatish tashkilotlarida marketing strategiyasini ishlab chiqish texnologiyasini ilmiy asoslash va uning amaliy jihatdan optimalligi haqida so‘z yuritish ayni muddaodir [3].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Bugungi kunda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport nafaqat millat salomatligini mustahkamlash, mamlakatni butun dunyoga tanitish vositasi, balki iqtisodiyotning salmoqli foyda keltiruvchi tarmog‘iga va shu bilan bir qatorda sport industriyasiga aylangan.

Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda professional sport moliyasini radioeshittirishlar, xususan, reklama va televideniedan keladigan daromad o‘zgartirib yubordi. Hozirda 4 ta asosiy sport turlari (**NLB(Beysbol)**, **NBA (Basketbol)**, **NFL (Amerika futboli)**, **NHL(xokkey)**) mahalliy va milliy radioeshittirish huquqlari orqali kelayotgan daromad oqimi evaziga o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda. Bu quyidagi 1-jadvalda aks ettirilgan.

**Rivojlangan mamlakatlarda professional sportga radioeshittirish huquqi kelishuvidan keladigan daromad**

## 1-Jadval

| Sport turlari         | Yillar    | Televidenienomi                    | Summa miqdori(mlrd \$) | Xar bir jamoaga yillik o‘rtacha summa miqdor ulushi (mln \$) |
|-----------------------|-----------|------------------------------------|------------------------|--|
| NLB(Beysbol)          | 2006-2013 | ESPN;<br>Fox; TBS                  | 4.87                   | 23.8   |
| NBA<br>(Basketbol)    | 2009-2016 | ABC/ESPN;<br>TNT                   | 7.44                   | 31.0   |
| NFL (Amerika futboli) | 2006-2013 | ESPN; CBS;<br>Fox; NBC;<br>DirecTV | 46.2                   | 184.4  |
| NHL(xokkey)           | 2011-2021 | NBC; Comcast;<br>VERSUS; CBC       | 2.2                    | 7.8  |

Manba: Michael A. Leeds, Peter von Allmen “The Economics of Sports” – 73 bet.

2017 yil 13 sentabrdagi **Sport (/News/Categore/Sport)** saytlarida yozgi transferlar vaqtida futbol bo‘yicha milliy championatlar sarflagan pullar miqdori e’lon qilindi. Bu haqda FIFAning rasmiy hisobotida rasman axborot berilgan. Bunda Transfer Matching System (TMS) ma’lumotlariga ko‘ra, birinchi o‘rinni Angliya premer-ligasi jamoalari egallashgan. Tumanli Albion vakillari yozgi transferlar vaqtida jami 1.4 mlrd. dollar (1.1 mlrd. yevro) sarf qilgan. Shu bilan birga 17 klub 20 mln dollardan ko‘proq mablag‘ ishlatgan. Yozgi transferlar vaqtida milliy championatlar sarflagan pullar miqdori bo‘yicha Angliyadan keyingi 2-o‘rinda Ispaniya, 3-o‘rinda Fransiya, 4-5 o‘rinda Germaniya va Italiya, 6-o‘rinda Rossiya va 7-o‘rinda Turkiya championatlari egallagan. Umuman olganda 2017 yilning 1 iyundan 1 sentabrga qadar bo‘lgan muddatda butun dunyo bo‘yicha 7590 xalqaro transfer savdolari kuzatilgan. Sarflangan pullar jami 4.71 mlrd. dollarga (3.9 mlrd. yevro) yetgan [4].

## XULOSA VA MUNOZARA

Sport marketingining ilmiy asoslangan maqsadli strategik konsepsiyasi sport tashkilotlarida marketing boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, bozordagi brendni yanada kuchaytirishga va uni taniqlilagini oshirishga, mustaqil daromad topish manbalarini izlashga, reklama faoliyati samaradorligini aniqlashga, mijozlarga nisbatan alohida yondoshuvni amalga oshirishga, sport tashkilotlarining imidjini yaxshilashga, raqobatbardosh sport maxsulotlarini ishlab chiqarishga, ularni nafaqat ichki iste'mol bozoriga, balki tashqi bozorlarga ham chiqarishga, davlat va xususiy mulk hamkorligida sport marketing strategiyasi uchun zarur bo'lgan asosni yaratishga, trenerlar, o'yinchilar, hakamlar va boshqa sport tashkilotlari sub'ektlari uyushmasining shakllanishiga, ishqibozlar, homiylar, sportchilarni sotish va sotib olish, ommaviy sport, sport biznesi, sog'lom turmush tarzi hamda sport sohasi faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdukhamedov, R. N. (2021). IMPROVING PSYCHOPHYSIOLOGICAL TRAINING OF TEENAGE BOXERS WITH THE HELP OF IMPROVISED MEANS OF GAMES. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).
2. Abduxamidov, R. N. (2021). SAMARALI VOSITA VA USULLAR YoRDAMIDA O'SMIR BOKSChILARNING PSIXOFIZIOLOGIK TAYYoRGARLIGINI TAKOMILLAShTIRISH. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1).
3. Халмухамедов, Р. Д., Абдухамидов, Р. Н., Каримов, И. К., & Усмонхўжаев, С. Т. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СУДЕЙСТВА В БОКСЕ. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1).
4. Usmonova, D., & Samijonov, M. (2022). INTERACTIVE APPOINTMENTS OF THE IDIOMS IN ENGLISH AND THEIR ALTERNATIVES IN UZBEK. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 536-543.

5. Abbasova, N. K. (2019). The importance of techniques in developing critical abilities of the learners in teaching English proverbs and sayings. *Мировая наука*, (9), 3-6.
6. Kabilovna, A. N. (2020). Methodology of teaching proverbs and sayings of English in general education schools. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 67-69.
7. Аббасова, Н. К. (2020). ИНТЕРАКТИВНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 49-53).
8. Аббасова, Н. К., & Канатаева, Э. Н. (2016). РАЗВИТИЕ УВЕРЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ В ПИСЬМЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-1), 133-136.
9. Аббасова, Н. К., & Канатаева, Э. (2017). ДОМИНАНТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКОГО КОММУНИКАТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ В ВУЗЕ. *Ученый XXI века*, 57.

## MAKTAB YOSHIDAGI BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRISH

**Nodirova Sarvinoz Ne'matjon qizi**

Farg‘ona viloyati Quva tuman 50-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda bolalar og‘zaki nutqini rivojlantirishda o‘yin, ota onaning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** polisemiya, semantik soya, ijodiy tafakkur, anatomik-gimnastik mashq.

Maktab yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish uchun asosiy o‘yin vazifalaridan biri bu bolaning so‘zlarini boyitish, tushunchalarni o‘zlashtirishda, ishlatilgan so‘zlarning polisemiyasini va ularning semantik soyalarini tushunishda. O‘yinlarda bolaning nutq faoliyati rivojlanadi, ona tiliga qiziqish va e’tibor tarbiyalanadi shu tariqa bola to‘g‘ri va ifodali so‘zlashga o‘rgatiladi. Birinchi sinfga borgan bolaning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishida o‘qituvchining xizmati katta. Bolalarning barchasiga tushunarli, shevalardan foydalanmay sof badiiy nutqda dars jarayonini olib borishni talab etadi. Ma’lumki, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo‘llab, bolalarga chuqur bilim berish mактаб ya’ni boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoniga olib kirildi Boshlang‘ich maktabda nutqni rivojlantirish muammosi eng muhimlaridan biridir. Obrazli, sinonimlarga, qo‘srimcha va tavsiflarga boy, bolalar nutqi bugungi kunda kam uchraydigan hodisadir. Bola uchun esa yaxshi nutq muvaffaqiyatli o‘rganish va rivojlanishning kalitidir. Afsuski, shuni ta’kidlash kerakki, ko‘plab bolalar nutq darajasi past bo‘lgan holda o‘qishga keladilar, gapni to‘g‘ri qurishni bilmaydilar, monolog gapirmaydilar, noto‘g‘ri talaffuz, keyin esa imlo bilan bog‘liq suhabatda xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Ko‘pincha ularning nutqi lakonik, quruq, tasvir va yorqinlikdan mahrum. Aniq va grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishga, puxta

o'rgatilgan ovozga ega bo'lishga, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ifodalay olishga, o'z his-tuyg'ularini turli intonatsion vositalarda ifodalay olishga o'rgatish, nutq madaniyatini kuzatish va so'zlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Demak, o'quvchilarni o'qitishning hozirgi bosqichidagi eng muhim vazifalardan biri nutq faoliyatini rivojlantirishdir.

Shuning uchun o'qituvchi oldida bolalarni so'zni his qilishga, gaplar tuzishga, matnni (mavzu, g'oya, tuzilish) tushunishga o'rgatish vazifasi turibdi. Bu muammoni faqat ona tili , adabiyot, o'qish darslarida emas, balki boshqa darslarda ham, sinfdan tashqari vaqtarda ham hal qilish kerak.Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari bolada ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun bolalarning nutq faolligi, muloqot qilish, o'z fikrlarini ifoda etish uchun sharoit yaratishda juda muhimdir. Talabalar nutqini turli til vositalari bilan boyitish, nutqdagi kamchiliklarni oldini olish va bartaraf etish, talaffuz me'yorlari va nutq vositalarini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Maktabgacha ta'lim uzlusiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktab ta'limning maqsadi - bolalarni o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.Bolalar nutqini o'stirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma'naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta'sirchan bo'ladi, bola o'z nutqini tuzatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. «...Tilni egallash jarayoni -bu faqat shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish,

inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir» (K.D.Ushinskiy). Shuningdek bolaning nutqidagi kamchiliklarni faqat o'qituvchi yoki, ota-onaga bog'liq emas.Oila, maktab hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgandagina, bolada ijobiy o'zgarishlar kuzatsak bo'ladi. Bundan tashqari har bir oilada badiiy adabiyotga qiziqish ortgandagina, jamiyatda o'sish va rivojlanish sezilarli darajada o'z kuchini ko'rsatadi. Inson ma'naviyatli va madaniyatli bo'lib tug'ilmaydi, u bilim olish jarayonida shakllanadi. Bizning oldimizda turgan eng katta masalalardan bir esa, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida tarbiyalanishi uchun qo'limizdan keladigan barcha ezgu ishlarni qilishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va mакtablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. -T.: O'qituvchi, 1993.
2. Babaeva D.R. Nutq o'stirish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: TDPU, 2016.
3. F.R.Qodirova. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagи bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodika



**AN'ANAVIY MUSIQA – ZAMONAVIY MUSIQA LABARATORIYASIDA  
(OMNIBUS VA TALABA KOMPOZITORLAR)**

**Omonjonova Odinaxon Farruxjon qizi**

O‘zbekiston Davlat Konservatoriysi

E-mail: [odinaomonjovoa@gmail.com](mailto:odinaomonjovoa@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbek professional zamonaviy musiqasiga o‘z hissasini qo‘sib kelayotgan “Omnibus” musiqiy ansambl faqoliyati haqida ma’lumot berilgan.Undan tashqari mazkur ansamblning O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida talabalar bilan ishlash jarayonlari va yutuqlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Omnibus, Zamonaviy musiqa Labaratoriyasi,ijodkor jamoa

**TRADITIONAL MUSIC - IN THE LABORATORY OF MODERN MUSIC  
(OMNIBUS AND STUDENT COMPOSERS)**

**Annotation:** This article provides information about the activities of the "Omnibus" musical ensemble, which has been contributing to professional modern Uzbek music.In addition, the work processes and achievements of this ensemble with students at the State Conservatory of Uzbekistan were highlighted.

**Key words:** Omnibus, the laboratory of modern music,creator team

O‘zbek milliy musiqa madaniyati o‘ziga xos va betakrordir,zero o‘zbek xalqi bir necha asrlardan buyon rivojlangan musiqa madaniyatiga ega.Uning badiiy ijodi esa asrlar davomida yaratilib og‘izdan og‘izga va avloddan avlodga an’anaviy tarzda yetib kelgan jamoa ijod mahsulidir.O‘zbek an’anaviy musiqasi o‘zining yorqin koloriti,badiiy falsafasi,mazmundorligi va qalbga yaqin ohanglari bilan harakterlanadi.Hozirgi kunga kelib an’anaviy me’ros ijodkorlar uchun ma’lum bir ilhom manbai bo‘lib hizmat qilib kelmoqda.Ushbu me’rosni o‘rganish musiqa

bilimdonlari va talabalari uchun juda ham manfaatli bo‘lib,ularda vatanga muhabbat,ohanglardagi,so‘zdagi xalqning bor o‘tmishi va falsafasi bilan tanishish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

An’anaviy musiqa merosini zamonaviy tarzda o‘rganish uchun O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida “Omnibus” (lotin tilidan tarjima qilinganda “Hamma narsa” degan ma’noni bildiradi) ansambil faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.Ushbu ansambl 2004-yilda Toshkentda iqtidorli musiqa sozandalari tomonidan tashkil etilgan.Yosh jamoaning asosiy maqsadlari jahion zamonaviy musiqasini O‘zbekistonda targ‘ib etish va zamonaviy o‘zbek kompozitorlari ijodini xorijda ham taqdim etishdan iborat bo‘lgan. Jamoa va jamoaga rahbarlik qilgan iste’dodli musiqachi,dirijyor va kompozitor Artyom Kim uchun asosiy narsa zamonviy musiqaning “ko‘p yo‘nalishli” rivojlanishi va targ‘ibotini “Hammaga hizmat qilish deb hisobladi.Ansambl repertuaridan XX asr kompozitorlari va yangi asr yosh kompozitorlarining asarlari kitritilgan.Musiqachilar ijro etgan asarlaring aksariyati Markaziy Osiyoda ilgari hech qachon tashkil etilmagan,jahon premyeralari ham bo‘lgan “Omnibus”ansambil o‘zining shijoatli va mehnatsevarliklari bilan o‘zbek zamonaviy musiqasi olamida munosib iz qoldirib kelmoqdalar.Bir qancha chet elda bo‘lgan tanlov va festivallarda faol ishtiroklari bilan tomoshabinlar va musiqachilar e’tiborini qozondilar.

**“Omnibus”** ansambil **O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida** faoliyat yuritishi yosh talaba kompozitorlari uchun juda ham manfaatli bo‘ldi deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi.”**Zamonaviy musiqa labaratoriysi**” fani sifatida “Omnibus” jamoasi va uning raxbari **Artyom Kim tomonidan o‘tkaziladigan ma’ruzalar** har bir kompozitor talaba uchun bir yangilik bo‘lib musiqa san’atining noyob tomonlarini o‘rganishga turki berib kelmoqda.Ansamblning bosh maqsadi yosh kompozitorlar va ijodkorlarga zamonaviy musiqani hamda nazariy va amaliy jihatlarini va an’anaviy musiqalarni o‘rganib ulardan mahorat bilan foydalanishni,zamonaviy musiqa bastalashni o‘rgatishdan iborat.Ma’ruzalar juda ham qiziqarli tarzda bo‘ladi.Xattoki,chet ellik o‘z kasbining mohir ustalari va dunyo tanigan sozandalari bilan online mahorat darslari bo‘lib o‘tadi.Kompozitorlar(xattoki

talabalar ham) ushbu ansambl uchun musiqa asarlari yozishi mumkin,albatta ansambl bilan hamkorlikda.Jamoadagi har bir sozanda o‘z ishiga ma’suliyat bilan yondashadi va asar yozmoqchi bo‘lgan kompozitorga o‘z cholg‘usi va uning imkoniyatlari,ijro qilinishi haqida to‘liq ma’lumot beradi.Bu narsa kompozitorlik sohasida rivojlanish uchun juda katta yordam beradi.Undan tashqari,kompozitor labaratoriyada qaysi cholg‘uga asar yozmoqchi bo‘lsa o‘sha cholg‘uni chalib ko‘rish imkoniyati mavjud.

O‘zbekiston davlat Konservatoriysi “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasi ustozlari va talabalari bevosita “Omnibus” ansambl bilan o‘zaro ijodiy hamkorlikni olib boradilar.Ansambl bir qator o‘zbek kompozitorlarining zamonaviy asarlarini ijro etgan va bu narsa talabalar uchun ham ma’lum maktab hisoblanadi.

Labaratoriyada har hil horijiy zamonaviy musiqalar bilan bir qatorda o‘zbek an’naviy musiqasining zamonaviy nota grafikasi ham tushntirilib boriladi.Milliy ohanglar asosida asar yozish esa ijodkordan chuqur bilim,milliylilikni anglash va nazariy bilimlar kerak bo‘ladi.Aynan ansambl orqali talabalar o‘z savollariga javob olmoqdalar va o‘zлари ham an’naviy musiqalarimizdan maqomlar va folklor ga murojaat qilib o‘z asarlarini yozmoqdalar.Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki,talaba kompozitorlarning bir necha asarlari.xususan, Asad Turg‘unovning 2021- yilda yozgan o‘zbek milliy folklor kuyi “Boychechak” temasi asosida yozilgan kuyi,Noila Abdurahmonovaning “Dugoh maqomi asosida yozilgan “Qalb sadosi” nomli zamonaviy cholg‘u kuyi,undan tashqari,J.Axrорovning “Dugoh “Husayniy”.A.Turg‘unovning “Body Maqom”,G‘.Muhammadovning “Oldinga”asarlarda va bir qancha talaba kompozitorlar musiqalarining ildizi bo‘lgan an’naviy musiqaning zamonaviy ko‘rinishlarini yaqqol his etish mumkin

“Omnibus”ansambl O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida samarali mehnat va ijod qilib kelmoqda.Undan tashqari bir necha konkurslar tashkil qilinib,muntazam ravishda talabalar faol ijro etib kelmoqdalar. Bundan keying yillarda ham An’naviy musiqa me’rosimizni o‘rganib va taxli qilib yana shunday asarlar yozilishiga ishonchimiz komil.

## O'ZBEK MAKTABLARIDA RUS TILINI O'RGA TISH METODLARI

**Sanaqulova Marg'uba Xamza qizi, Sa'dullayeva Guliston Xalil qizi**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 9-o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek maktablarida rus tilini o'rgatishda ta'lim sifatini oshirish uchun turli metodlardan foydalangan holda o'qitish metodikasining ahamiyati, o'qitish metodikasining asosiy usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qitish usuli, metod, ta'lim, xotira, tasavvur, bilim, ko'nikma, dunyoqarash va axloqiy-estetik g'oyalar.

Rus tilining o'quv predmeti sifatida ahamiyati uzoq vaqtidan beri e'tirof etilgan, chunki til odamlar o'rtasidagi aloqa, aloqa vositasi - ma'lum bir jamoa (odamlar) a'zolari bo'lib, ularsiz insonning ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Rus tilining akademik fan sifatidagi ahamiyati ham shundan iboratki, unda bilim va malaka o'quvchilarga maktabda o'qitiladigan barcha fanlar bo'yicha bilimlarni muvaffaqiyatli egallash imkonini beradi.

Metod (yun. "métodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'lyo'riklar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

O'qitish usuli o'qituvchi va o'quvchilarning tartibli o'zaro bog'langan faoliyati usulini, o'quv jarayonida ta'lim, tarbiya va rivojlanish muammolarini hal qilishga qaratilgan faoliyat deb ataladi. Ular ta'lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Tegishli faoliyat usullarisiz o'qitishning maqsad va vazifalarini amalga oshirish, o'quvchilar tomonidan o'quv materialining ma'lum mazmunini o'zlashtirishiga erishish mumkin emas. O'qituvchi ma'lum bir ish uchun o'zi tanlagan texnika yoki usulni tahlil qilishi va baholay olishi kerak. Rus tilidagi mashg'ulotlar o'quvchilarga tilning grammatik tuzilishi, lug'aviy tarkibi va hokazolar

haqida ma'lum miqdordagi zarur bilimlarni beribgina qolmay, to'g'ri yozish ko'nikmalarini, nutqiy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki muhim ta'lim vazifalarini ham hal qiladi.

Zamonaviy ta'limning markazida o'qituvchining faoliyati turadi. Haqiqatni bilish vositasi sifatida rus tili nafaqat lingvistik bilimlarni, balki bolaning intellektual rivojlanishini ham ta'minlaydi, konseptual-kategorik apparatni shakllantiradi, mavhum fikrlash, xotira va tasavvurni rivojlanadiradi. So'nggi yillarda, afsuski, o'quvchilar rus tili darslarida qiziqishning keskin pasayishi, bolalarning til ko'nikmalarini kengaytirish, savodxonlik va nutq madaniyatini oshirishga bo'lgan istagi yo'q. Hozirgi kunda barcha o'qituvchilarni qiziqtiradigan eng muhim muammo — rus tili darsining o'quvchilarning asosiy ta'lim va tarbiya shakli sifatida samaradorligini oshirishdir. Xuddi shu shaklda o'tkazilgan darslar o'quvchini charchatadi. O'quvchi va o'qituvchi uchun darslarning monoton ekanligi o'quv faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Ta'lim berishga majbur qilmang, balki qiziqish uyg'oting, o'quvchida doimiy bilim olish istagini paydo qilish o'qituvchining vazifasidir. Yosh o'quvchi o'ziga xos yosh xususiyatlariga ega: beqaror e'tibor, vizual-majoziy fikrlashning ustunligi, vosita faolligini oshirish, o'yin faoliyatiga bo'lgan intilish, bilimlarning xilma-xilligi. Bularning barchasi o'qituvchining ishini murakkablashtiradi. Dars davomida bolalarning e'tiborini saqlab qolish uchun faol va qiziqarli fikrlash faoliyatini tashkil etish zarur.

O'qituvchilarga darslarni tayyorlash va o'tkazishga ijodiy yondashish bolalarga nisbatan ko'p narsani ijobiy o'zgartirishi mumkin. O'quvchilarni faollashtirish, qiziqishni rivojlanirish, ularni bilimga ega bo'lishga undash uchun o'qituvchi ishni va darslarning boshqa shakllarini — ularning qiziqarli navlarini amaliyotga joriy etishi va natijada mualliflik-noan'anaviy darslarni yaratishi kerak. Dars-o'quvchilar o'rganilayotgan materiallarni (bilim, ko'nikma, dunyoqarash va axloqiy-estetik g'oyalar) o'zlashtirish maqsadida ta'limni tashkil etish shakli So'nggi paytlarda ushbu ta'lim shakllari bilan bir qatorda an'anaviy bo'lmagan yoki nostandard ham keng qo'llanilmoqda. Bular: tanlovlardan, sayohatlar, integratsiyalashgan darslar, ertaklar, mavzuli o'yin darslari, teatr tomoshalari, "Quvnoqlar va zukkolar"

tanlovlari, ekskursiyalar orqali o‘quvchilar dasturiy materiallarni tezroq va yaxshiroq o‘rganadilar. Nostandart dars — noan’anaviy (aniqlanmagan) tuzilishga ega bo‘lgan, birinchi navbatda, o‘quvchilarning qiziqishi, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, ularning optimal rivojlanishi va tarbiyasiga hissa qo‘sadigan ta’lim darsi. Darslarning noan’anaviy shakllari darsda yangi materiallarni o‘rganishning turli usullarini qo‘llash orqali o‘quvchilarni uy vazifalari bilan ortiqcha yuklashni bartaraf etishda cheksiz imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Noan’anaviy darslar ga misol sifatida quyidagilarni keltiramiz: Dars turlari, dars shakllari : —yangi bilimlarni shakllantirish saboqlari, —ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish saboqlari, —bilimlarni takrorlash va umumlashtirish darslari, —ko‘nikmalarni mustahkamlash bilimlarni tekshirish va hisobga olish saboqlari-ekspeditsiya darslari (sayohat), amaliy ishlar rol o‘ynash o‘yinlari: KVN. “Nima? Qayerda? Qachon?”, “Mo‘jizalar maydoni”, “baxtli tasodif” integratsiyalangan teatrlashtirilgan darslar —darslar-musobaqalar: test sinovlari, tanlovlar Bolalar dars-muloqot, dars-konsert, dars-sahna, dars-ekskursiya, dars-sayohat, dars-o‘yin kabi darslarni juda yaxshi ko‘radilar.

Xulosa qilib aytganda. O‘zbek maktabalrida rus tilini o‘rgatishda bugungi kunda turli metodlardan foydalanilmoqda. Xususan yuqorida keltirilgan bir necha metodlar o‘quvchilarni rus tilini o‘rganishda ijobiy natija beradi. Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarga rus tilining mazmun mohiyatini ochib bera oladi

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Granik G. G., Bondarenko S. M., Kontsevaya L. A. Rus tili bo‘yicha seminar. — M., 1988.
2. Gubanova O. V. Levkina I. S. Sinfda o‘yin texnikasidan foydalanish // Boshlang‘ich mifik, 1997. — № 6.
3. Джуманиёзова, Д. К. Rus tili darslarida o‘qitishning nostandart shakllari va usullari / Д. К. Джуманиёзова. — Текст : непосредственный // Молодой учёный. — 2022. — № 22 (417). — С. 673-675. — URL: <https://moluch.ru/archive/417/92461/> (дата обращения: 20.08.2022).

4. Dilorom, I. (2021). Semantic-structural peculiarities of shakespearean neologisms. *Social Sciences, Humanities and Education Journal (SHE Journal)*, 2(2), 78-82.
5. Ismoilova, D. (2021). SHAKESPEAREAN NEOLOGISMS AND THEIR PECULIARITIES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
6. Nurmatova, M. M., & Ismoilova, D. R. (2021). BUILDING THE STRATEGIC COMPETENCE IN THE HETEROGENEOUS COMMUNICATION. *ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ*, 65.
7. Dilorom, I. (2021). Communication Breakdown in the Heterogeneous Communication. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 1(6), 136-140.
8. Ismoilova, D., & Hudoyorov, D. THE IMPORTANCE OF TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN. *O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O 'RTA MAXSUS*, 347.
9. Ismoilova, D. (2021). Pragmatic failure in the heterogeneous communication. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).



**SPORTCHILARDA (ASOSAN DZYUDO VASPORT KURASHLARI UCHUN  
ISHLAB CHIQILDI) PORTLOVCHI KUCH VA UNI RIVOJLANTIRISH  
TEXNIK XUSUSIYATI**

**Quvondiqov Muxriddin Xamza o‘g‘li**

O‘zDJTSU 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Bugungi kunda portlovchi kuch haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish natijasida qisqach lekin aniq yo‘naltirilgan ma’lumotlarda va mashqlar xususiyati tavsiflangan ma’lumotning kamligi. Sportchilar mashqlarni bajarishda to‘liq kuchlanishda dimiy ishlash kerakligi haqidagi ma’lumotlar ishlatilishi kabi ma’lumotlar yoritilishi, mashq bajarish texnikasini to‘liq bajarishdagi holatni ta’siri. Portlovchi kuchni sportchilarda rivojlantirishda mashq texnik xususiyatini o‘zgartirish va to‘g‘ri texnik yo‘nalish berishni ta’minlash.

**Kalit so‘zlar:** Massa – asosan sportchiga vaznidan tashqari qo‘srimch berilgan og‘irlikka nisbatan ishlatildi.

Rezina – maxsus asosan sport kurashlarida ishlatiluvchi elastic sport rezinasи.

Xanay goshi – dzyudoda qo‘llaniladigan uslub.

**KIRISH**

Bugungi kunda sportchilarda portlovchi kuch sifatini rivojlantirishda tanaga noto‘g‘ri yondashuv natijasida yetarlicha natijaga erishish yo‘li qiyinlashayotganligi. Ayrim xato va kamchiliklar sabab bu sifatni rivojlantirishda natijaga erishish qiyin bo‘layotganligi sabab qisqacha portlovchi kuchni o‘rganildi. Bu portlovchi kuchga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish va buni qisqacha mazmunli yoritish uchun nazariy yondashildi.

Maqsad: Portlovchi kuch sifatini rivojlantirishda to‘g‘ri texnik jihatni tanlash va jarohat xavfini kamaytirgan holatda tog‘ri rivojlantirish va mashqlar samaradorligini oshirish.

Portlovchi kuch sifatini rivojlantirishda sportchining jismoniy va antropometrik o‘lchamlarini hisobga olgan holda. Uning raqib qarshiligini yengib o‘tishi, mushaklar va umumiy tana jismoniyatidan kelib chiqqan holda unga qarshilik ko‘rsatishi, usul bajarishdagi holat erkinligini ham tushinish mumkin.

Portlash kuchi odamning vosita harakati davomida eng qisqa vaqt ichida maksimal kuch ko‘rsatkichlarga erishish qobilyatini aks ettiradi.

Portlovchi kuch qisqa vaqt ichida o‘z shiddatiga ko‘ra kata kuchlanishlarni namoyon qilish qobilyatini tavsiflaydi. Qisqa vaqt ichida ya’ni usulga o‘tishda aynan portlovchi kuch ususl samaradorligini oshiradi. Sportchi organizimida aynan dzyudo sportchisi uchun mushaklar rivojlanganligi va ularga berilgan mashqlar organizmdagi kuchlanishni belgilab beradi. Biz sportchiga portlovchi kuchni rivojlantirishga beriladigan mashqlarni to‘g‘ri tanlashimiz ham juda muhim.

Qisqa muddatli maksimal kuchlanish uchun doimiy tanaga qarshili ko‘rsatib turuvchi va qarshilikni yengishga ta’sir vaqtida qarshilikni keskin oshishiga va buni mashq vaqtida stabil bo‘lishini ta’minlash uchun maxsus rezinadan foydalanish tavsiya etiladi. Har qanday mashg‘ulotdagi mashq imkoniyatidan kelib chiqib mashqlarga qo‘llash mumkin. Rezina bilan biror ususlni bajarish vaqtida to‘g‘ri texnik va maksimal kuch bilan harakatlanish talab qilinadi. Masalan “Xanay goshi” usul vaqtida oyoq bilan maksimal tayanish va maksimal rezinani tortish qo‘l bilan tortib surish holatini maksimal kuch bilan maksimal tezlikda bajarish 5-10 marotaba usul bajarishdagi portlovchi kuch sifatini rivojlanishiga yordam beradi. Bajariladigan mashqni 10 martadan oshib ketishi organizmda portlochi kuchni rivojlanishdan ko‘ra ko‘proq chidamkorlikka xizmat qiladi. Agar mashqlar sekinlashganini sezsa sportchi urinishlar orasidagi tanaffusni oshirishi ya’ni 1-2 soniyali tanaffusni 10 soniyagacha oshirish tavsiya qilinadi, ya’ni 8-urinishdan keying urinishlarda kuchni yarimi bilan qisqa tanaffusda ishlagandan ko‘ra (1-2 soniyali tanaffus qisqa tanaffus), uzoqroq nafas rostlab keskin nafas olish va keskin nafas chiqarish orqali mashq yakuniga qadar ya’ni taxminan 20-urinishgacha maksimal kuch bilan ishlashga erishish mumkin. Sport amaliyotida 55-100% kuchlanish 5-10 soniya davomida qo‘llaniladi. Kuchlanishning ortishi bilan gavda holatini ushlab turish vaqt kamayadi.

Oyoqlarda portlovchi kuchni rivojlantirishga tavsiya qilingan mashqlar:

- 1) Massa (Qo'shimcha yuk: gantel, shtanga, yuk qop) bilan stulda o'tirish holatida keskin tik turish holatiga o'tish



- 2) Belga maxsus rezina mahkamlab yarim otirish holatidan sakrash holatiga keskin o'tish
- 3) Tiz cho'kish holatidan sakrash holatida oyoqlarni almashtirish (yuk bilan yoki yuksiz(yuk: shtanga, gantel))



- 4) Maxsus trenajorda (GYM oyoq uchun 45 gradusda yuqoriga surib ishslash uchun) sportchi og'irligidagi vazn bilin ishslash. Mashqda oyoqlarni to'liqsiz bukib keskin surish tavsiya etiladi.



- 5) Maxsus yog‘och qutiga ikki oyoqda sakrab chiqish.



- 6) Belni rezina bilan tutib turilgan holatida yugurish startini amalga oshirish 8-10 marotaba (har urinish 3-5 metrga start tezlanishi ko‘rinishida)



Portlovchi kuchni rivojlanishini qisqa mashqlarimiz va oyoqdagi portlovchi kuch misolida ko‘rishimiz mumkin. Mashqlar holati yuklama bilan mashq yarim holatdan dastlabki holatga keskin o‘tish orqali yuklama beriladi bu holatda mushaklar to‘liqsiz siqilib keskin tarranglashadi, bunda portlovchi kuchga kerakli bo‘lgan aynan keslik tarranglashish holati yuzaga keladi va rivojlanadi. Mashqlarni to‘liq bajarish vaqtida (Misol: yarim emas balki to‘liq texnika bilan o‘tirib turish) keskin bajarishda jarohat olish mumkinligi, aynan to‘liq mashq texnikasi vaqtida vaq uzunligi va yetarlich keskinlik yuzaga kelmasligi portlovchi kuchga to‘liq erishishda noqulayliklar keltirib chiqarishi kuzatildi (Dzyudo usullarini bajarishdagi rezinadan foydalanish ayrim usullari bundan mustasno). Dzyudoda tezlik va keskin harakatlar musoboqalashuv jarayoni aoslaridan bo‘lganini hisobga olsak portlovchi kuchni rivojlantirish keskin va tezkor hujumlar yuzaga keltirishda samarali hisoblanadi. Sportchi tanasidagi gavda qismi uchun bu xususiyatni rivojlantirishda yelkadan oshirish usullarini rezina bilan bajarishni o‘zi gavda qismida portlovchi kuch xususiyatini rivojlantirishda sezilarli samara beradi. Gavda qismidagi kokrak, qanot, yelka, qo‘l, bo‘yin, qorin(press), bel mushaklarida portlovchi kuch sifatini rivojlantirishda trenajor yoki boshqa vositalar (gantel, shtangalar, zarba to‘plari va h.k) bilan ishslash texnikasida yuklama bilan mashqni yarim bajarish holatidan dastlabki holatga keskin kuch bilan qaytarish shu tana qismlarida portlovchi kuch xususiyatini rivojlanishi, yaxshilanishi, rivojlanishiga erishish mumkin. Portlovchi kuchni yaratish uchun ishlatiladigan mashqlar turlari qisqa vaqt ichida sportchidan maksimal yoki maksimal quvvatli chiqishni talab qiladigan harakatlardir. Tadqiqot portlovchi (tezkor va kuch) mashqlari atletika quvvatini shakllantirish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydi, ammo boshqa mashg‘ulot turlari bilan birgalikda bu ishni yaxshi bajaradi. Ikkala kesma va uzunlamasina ma’lumotlarga ko‘ra, kuch-quvvat, kuch va harakat tezligini maksimal darajada oshirish uchun og‘ir va engil portlovchi mashqlar kombinatsiyasi faqat o‘quv uslubiga qaraganda ustun natijalar beradi.

Qo‘shimcha dalillar, kuchning chiqishi yoki harakat tezligini maksimal darajada oshirish uchun o‘qitishning birinchi bosqichi maksimal quvvatni oshirishga va

mustahkam poydevor yaratishga qaratalishi kerak, ikkinchi faza esa kuch va tezkor ta'limga bag'ishlangan.

Organizmga mashq berilgan vaqtida yuklamani qabul qilishda oddiy holatda (oddiy holat bu mashq holatidagi stabil vaziyat) va unga kuch berishda keskinlik yuzaga keltirsak bunda mushaklar tarangligi ortishi va o'sha yuklama berilgan qismida portlovchi kuch ortishini kuztamiz.

1) Qanday holda keskinlik qay darajada bo'lishi kerak jaroharni oldini olish uchun sportchi holatidan kelib chiqib yuklama og'irligi sportchi ko'tarishi mumkin bo'lgan maksimal og'irlikni 50% dan boshlab 100% gacha ko'tarish maqsadga muvofiq.

2) Sportchi mashqlar texnikasini noto'liq ya'ni o'tirib turish mashqini misol qilib olsak, bunda o'tirish to'liq emas balki yarim holatda o'tirib keskin turish holatida bajarilishini ko'rishimiz mumkin. Sabab to'liq otirgan vaqtimiz mushaklar deyarli maksimal yig'iladi va keskin turganimizda ular yig'ilgan tez taranglashib mikrojarohatlar (mushak tolalar uzelishi) soni ortib mushaklar cho'zilib jarohatlanish xavfi keskin ortadi. Shu sababli mushaklarni yarim yig'ilgan holati afzal hisoblandi

Mushaklar tarang holatdan bo'shashgan holatga o'tkazmay turib mashqlarni bajarish texnika asosi bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) "Kurash turlari nazariyasi va uslubiyoti" N.A. Tastanov (Toshkent – 2017)
- 2) [uz.warbletcouncil.org](http://uz.warbletcouncil.org)
- 3) [Arm.tdpushf.uz](http://Arm.tdpushf.uz)
- 4) Biomexanika. Umarov D.X.

## MATEMATIKA KURSIDA UMUMLASHTIRUVCHI DARSLAR ORQALI O'QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATLARINI VA MATEMATIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

**Qarshiyeva Muhayyo Xidirovna**

Karmana tumani 8-umumiyl o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi.

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada umumlashtirish darslarida o'tilgan mavzularni umumlashtirish va tizimlashtirish orqali o'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirishda algoritmik o'qitish usulini qo'llashni ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** umumlashtirish, tizimlashtirish, matematik tafakkur, xususiy xulosa, umumiyl xulosa, algoritmik metod, qobiliyat.

### **Резюме**

В данной статье мы рассмотрим применение алгоритмического метода обучения в формировании математического мышления студентов путем обобщения и систематизации тем, затронутых на уроках обобщения.

**Ключевые слова:** обобщение, систематизация, математическое мышление, специальный вывод, общий вывод, алгоритмический метод, способность.

### **Resume**

In this article, we will consider the application of the algorithmic teaching method in the formation of students' mathematical thinking by generalizing and systematizing the topics covered in generalization lessons.

**Key words:** generalization, systematization, mathematical thinking, special conclusion, general conclusion, algorithmic method, ability.

Matematika o‘qitishda o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirish va ularni mamlakatimiz uchun yetuk kadr bo‘lib shakllanishi va kelajakda yuqori saviyadagi mutaxassis bo‘lib yetishishiga o‘qitish jarayoni va qonuniyatlarini, tanlangan mashqlarning mazmuni va turlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumlashtiruvchi darslarda o‘tilgan mavzularni umumlashtirish, tizimlashtirish o‘quvchilarning matematik tafakkurini shakllantiradi, o‘quvchilarni masalaga ijodiy yondashishga, mustaqil fikrlashga, masalaning turli yechimlari hamda eng qisqa optimal usullarini izlashga o‘rgatadi, o‘quvchilarda ilmiy izlanishga moyillik uyg‘otadi. Umumlashtiruvchi darslarda umumlashtirish, matematik tushunchalarni va masalaning qo‘yilishini aniqlashtirish o‘quvchilarning matematik tafakkurini, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish didaktik yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda o‘quvchilarнning matematik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradigan xususiy xulosalardan umumiyl xulosa chiqarishga oid misollar sistemasi o‘quvchilar uchun juda muhimdir. Bu bizni maqolamizni hozirgi kunda dolzarbligini bildirsa, ikkinchi tomondan bu yo‘nalishda hali yechilmagan muammolar juda ko‘pligidan dalolat beradi[3].

Har bir o‘qituvchi o‘quvchidan berilgan masalani yechimini tushuntirishni talab qiladi. Ba’zi o‘quvchilar masalani o‘zlari to‘g‘ri hal qila oladilar, lekin, uni qanday yechilganligini tushuntirib berishga qiynalishadi. Bunday holatdan o‘quvchini xalos etish uchun o‘qituvchi berilgan masalani yechilishidan bitta yoki ikkita namuna ko‘rsatishi kerak. Lekin, bunday hol ham o‘quvchining yaxshi o‘zlashtirishi uchun yetarli bo‘lmaydi. Buning uchun o‘qituvchi o‘qitishning algoritmik metodini qo‘llagani ma’qul. Algoritmik metoddan unumli foydalanishning bir nechta shartlari mavjud.

Algoritm iloji boricha qisqa bo‘lishi kerak. Bu algoritm o‘quvchi uchun reja, sxema vositasini bajarishi lozim. Masalaning yechilishi algoritmini o‘qituvchining o‘zi tuzadi va o‘quvchini shu algoritm asosida ishlashga o‘rgatadi.

Kvadrat uchhadni diskriminanti yordamida yechiladigan tenglamalar va tenglamalar sistemasi, tengsizliklarni yechish, funksiyaning qiymatlarini topish algoritmini qarab chiqaylik.

Buning uchun biz  $5x^2 - 2xy + 2y^2 - 2x - 2y + 1 = 0$  tenglamaning yechimini topish algoritmini ko‘rib chiqaylik.

Biz bu tenglamani yechishda quyidagicha ish tutishimiz lozim deb o‘ylayman.

1. Berilgan misolni biz x ga nisbatan tenglama tarzida, y ni esa o‘zgarmas koeffisiyent sifatida qaraymiz.

2. Kvadrat uchhad diskriminantini hisoblaymiz.

3. Diskriminant natijasiga qarab xulosa chiqaramiz.

Shu algoritm bo‘yicha yuqoridagi ikki o‘zgaruvchili tenglamani yechaylik.

$$1. \quad 5x^2 - 2(y+1)x + 2y^2 - 2y + 1 = 0.$$

$$2. \quad D = 4(y+1)^2 - 20(2y^2 - 2y + 1) = 4y^2 + 8y + 4 - 40y^2 + 40y - 20 = \\ = 36y^2 + 48y - 16 = -4(9y^2 - 12y + 4) = -4(3y - 2)^2.$$

3. Berilgan tenglama yechimiga ega bo‘lishi uchun diskriminant manfiy

bo‘lmasligi kerak. Bundan  $3y - 2 = 0, 3y = 2, y = \frac{2}{3}$  ekanligi kelib chiqadi. y ning qiymatini  $5x^2 - 2xy + 2y^2 - 2x - 2y + 1 = 0$  tenglamaga qo‘yamiz. Bu jarayon quyidagicha

$$\text{bo‘ladi. } 5x^2 - 2 \cdot \frac{2}{3}x + 2 \cdot \left(\frac{2}{3}\right)^2 - 2x - 2 \cdot \frac{2}{3} + 1 = 0, \quad 5x^2 - \frac{4}{3}x + 2 \cdot \frac{4}{9} - 2x - \frac{4}{3} + 1 = 0,$$

$$5x^2 - \frac{4}{3}x - 2x + \frac{8}{9} - \frac{4}{3} + 1 = 0, \quad 5x^2 - \frac{4+6}{3}x + \frac{8-12+9}{9} = 0, \quad 5x^2 - \frac{10}{3}x + \frac{5}{9} = 0,$$

$$D = \left(-\frac{10}{3}\right)^2 - 4 \cdot 5 \cdot \frac{5}{9} = \frac{100}{9} - \frac{100}{9} = 0, \quad x_{1,2} = \frac{\frac{10}{3} \pm 0}{2 \cdot 5} = \frac{\frac{10}{3}}{10} = \frac{1}{3}. \quad \text{Demak, } x = \frac{1}{3} \text{ ga teng ekan.}$$

Berilgan tenglamaning yechimi  $\left(\frac{1}{3}; \frac{2}{3}\right)$  ekan.

Xuddi shu algoritmni quyidagi tenglamalar sistemasiga ham qo‘llaymiz.

$$\begin{cases} x^2 - 2xy + 2y^2 + 2x - 8y + 10 = 0, \\ 2x^2 - 7xy + 3y^2 + 13x - 4y - 7 = 0. \end{cases}$$

Buning uchun sistemaning birinchi tenglamasini x ga nisbatan kvadrat tenglama sifatida faraz qilib uning diskriminantini topamiz. Uning diskriminanti  $D = -4(y-3)^2$  ga teng.

Ko‘rinib turibdiki, tenglama yechimga ega bo‘lishi uchun  $y=3$  bo‘lishi lozim, aks holda diskriminant manfiy bo‘ladi. Topilgan bu qiyamatni sistemadagi  $2x^2 - 7xy + 3y^2 + 13x - 4y - 7 = 0$  tenglama qo‘yib  $2x^2 - 7 \cdot 3 \cdot x + 3 \cdot 3^2 + 13x - 4 \cdot 3 - 7 = 0$ ,  $2x^2 - 21x + 3 \cdot 9 + 13x - 12 - 7 = 0$ ,  $2x^2 - 21x + 13x + 27 - 12 - 7 = 0$ ,  $2x^2 - 8x + 8 = 0$ ,  $D = (-8)^2 - 4 \cdot 2 \cdot 8 = 64 - 64 = 0$ ,  $x_{1,2} = \frac{8 \pm 0}{2 \cdot 2} = \frac{8}{4} = 2$ . Demak  $x=2$  ga teng ekanligini topdik.

Berilgan tenglamaning yechimi (2;3) ekan.

Umumta’lim maktabi matematika kursidagi umulashtiruvchi darslarining asosiy maqsadi – matematika kursining asosiy tushunchalarini takrorlash, umumlashtirish bilan birga ularni chuqurlashtirish va shu fandan o‘quvchilar biliminni tizimlashtirish hamda misol va masalalar orqali o‘quvchilar matematik tafakkurini rivojlantirishdir.

### **Adabiyotlar**

1. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. “Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” Toshkent 2011.
2. Ashurova D.N., Jumayeva N.F., Toshtemirova K.E., Ashurova G.Sh. The role and importance of innovative software and didactic complexes in increasing the effectiveness of training. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 11, Issue 1, January 2021. P. 871-875
3. Ashurova D.N. Innovative-didactic program complex as mean of implementing new education. EASTERN EUROPEAN SCIENTIFIC JOURNAL (*Gesellschaftswissenschaften*): Düsseldorf (Germany): Auris Verlag, 2018, № 3. P. 380-386

**FUTBOLCHILARNI JISMONIY RIVOJLANTIRISHDA YORDAMCHI  
JISMONIY TAYYORGARLIKNING O'RNI**

**Shomirzayev Manasbek Lochinboy o'g'li,**

**Kamalov Abduxalil Faxriddin o'g'li**

Namangan davlat universiteti magistrantlari

**Annotatsiya:** jismoniy tayyorgarlik turlaridan bo'lmish yordamchi jismoniy tayyorgarlik orqali futbolchilarning jismoniy rivojlantirishning samaradorligi haqida nazariy ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tayyorgarlik turlari, yordamchi jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish.

**THE ROLE OF AUXILIARY PHYSICAL TRAINING IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF FOOTBALL PLAYERS**

**Abstract:** theoretical information about the effectiveness of physical development of football players through auxiliary physical training, which is one of the types of physical training, is presented.

**Key words:** Types of physical training, auxiliary physical training, physical development.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga katta etibor qaratildi. Ma'naviy-marifiy qadriyatlar, milliy urfadatlar va an'analar tiklandi, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport bilan bog'liq ko'pgina tadbirlar amalga oshirildi. Yurtimiz Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi "Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to'g'risidagi 5924-sonli farmoni<sup>5</sup> buning yorqin dalili sifatida keltirish mumkin.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi "Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to'g'risidagi 5924-sonli farmoni

Umumta'lim maktablarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rni juda ham ahamiyatli bo'lib, ushbu mashg'ulotlar mifik tab o'quvchilariga bazaviy tayyorgarlikni yo'lga qo'yish uchun xizmat qilmoqda. Bunda eng muhim jihatlaridan biri tayyorgarlik turlari juda muhim bo'lib, unga alohida etibor qaraish lozim. Chunki hal qilinishi lozim bo'lgan vazifaning natijasi bajaruvchi, ya'ni o'quvchining jismoniy tayyorgarligiga, jismoniy sifatlarining qanchalik rivojlanganligiga bog'liq bo'lib, ularni rivojlantirishda tayyorgarlik turlaridan sanalgan yordamchhi jismoniy tayyorgarlik turi orqali ko'zlangan maqsadga erishish samaraliroq. Shu sababdan yordamchhi jismoniy tayyorgarlik turi o'quvchilar jismoniy holatiga tasirini qayta ko'rib chiqish zaruriyati tug'iladi va quyida nazariy ma'lumotlar bayon etishga urindik.

Futbolchilarning umumiyligi sport ixtisosligi o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etib, turli jismoniy mashqlar o'rtasida o'zaro ijobjiy va salbiy munosabatlar shakllanadi. Shuning uchun sportning xilma-xil turlari uchun ham umumiyligi tayyorgarlik bir xil bo'lmaydi. Ba'zi bir o'xshashlik bo'lishi bilan birga har bir konkret jarayon o'zining xususiyatlariga ega bo'ladi. Bu holat tayyorgarlik vositalarini tanlashga, ularga trenirovka jarayonida e'tibor qaratish darajalariga bog'liq. Sport vositalari umumiyligi, yordamchi, maxsus va musobaqa vositalariga bo'linadi:

**Umumiyligi tayyorgarlik** – umumiyligi tayyorgarlik (UJT) o'z ichiga quyidagi larni qamraydi; musobaqa faoliyati bilan bog'liq bo'limgan sportning boshqa turlaridan olingan jismoniy va o'yin mashqlari. Umumiyligi tayyorgarlikning (UJT) maqsadi: barcha muskul gruppalarini va jismoniy sifatlarning umumiyligi va garmonik rivojlanishi; professional kasalliklarning oldini olish; sog'liqni mustahkamlash; organizmning funktsional sistemalarini rivojlantirish (yurak - tomir, nafas olish, asab, endokrin va boshqalar); musobaqa va trenirovka nagruzkalaridan so'ng qayta tiklanish. Masalan, sprinter uchun UJT vositasi bo'lib, sport o'yinlari, suzish, kross, velosipedda poyga, og'ir atletika hizmat qiladi.

**Yordamchi vositalar** – yordamchi jismoniy tayyorgarlik(YoJT) musobaqa mashqlari bilan bog'langan mashqlar bo'lib, ular harakatning alohida fazalari va

sifatlarini rivojlantiradi. Yordamchi jismoniy tayyorgarlikning (YoJT) – maqsadi jismoniy va psixologik sifatlarning ayrim tomonlarini va texnik – taktik harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish. Masalan, sprinter uchun YoJT vositasi yuk bilan yugurish, toqqa va tog‘dan pastga yugurish, lider ortidan yugurish va boshqalar.

**Maxsus tayyorgarlik** – maxsus jismoniy tayyorgarlik(MJT) musobaqa mashqlariga maksimal yaqinlashgan bo‘ladi, lekin ma’lum shart va qoidalarga rioya qiladi. Ular musobaqa mashqlardan ma’lum farqqa ega. Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) musobaqa mashqlariga maksimal maksimal yaqinlashtirilgan bo‘ladi, lekin musobaqalardan farqlanuvchi ma’lum shart va qoidalarga ega. MJT – musobaqa mashqlarda zarur bo‘lgan texnik – taktik harakatlarni, jismoniy psixik sifatlarni takomillashtirishdir. Masalan, spinter uchun MJT turgan joydan va startdan 10, 20, 40, 60, 80, 100, 120 metrga yugurish, chalkashtiruvchi faktorlarning borligidir.

**Musobaqa tayyorligi**– musobaqada bajariluvchi mashqlar yoki musobaqa qoidalari bo‘yicha raqib ishtirokida trenirovka (raqib, sherik yoki jamoa). Masalan, sprinter uchun musobaqa tayyorgarligi (MT) 100 metrga yugurish bo‘ladi.

**Xulosa:** Yordamchi jismoniy tayyorgarlik shug‘ulanuvchilarining jismoniy tayyorgarligiga ijobiy tasir etib uning qo‘sishma imkoniyatllarini ochishiga ko‘maklashadi. Inson jismoniy sifatlarini rivojantirib, mashqlarni o‘zlashtirishiga zamin yaratadi hamda texnik – taktik harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirishda yetarlicha o‘rin egallaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Abdullaev A., Xonkeldiev SH. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent., O‘z DJTI, 2005 yil - 300 b.
- 2.Livitsskiy A.N Maktabgacha yoshdagи bolalarni jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent: 1995 yil - 500 b.
- 3.Salomov R.S. Sport mashg‘ulotning nazariy asoslari – Toshkent., O‘z DJTI, 2005 yil - 238 b.
- 4.Maxkamjonov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent., “Iqtisod -moliya” 2008 yil - 300 b.

## **TA'LIM O'ZBEK TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKtablarda RUS TILI GRAMATIKASINI O'RGATISHNING INTERFAOL USULLARI**

**Samandarova Nasiba Aktam qizi, Normurodova Sharifa Shukurillo qizi.**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

9-o'rta ta'lismaktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lism o'zbek tilida olib boriladigan maktablarda rus tilini o'qitish metodikasining yangi yo'naliishlari muhokama qilinadi. O'quvchilarning rus tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan turli usullarning xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** rus tili, didaktik maqsad, noan'anaviy, integratsiyalashgan darslar, an'anaviy maktab darslari.

Bugungi kunda ta'lism o'zbek tilida olib boriladigan maktablarda rus tilini o'rgatishda o'qituvchilar turli interfaol usullardan unumli foydalanmoqda. O'qitish uslublarining rivojlanishi tillarni o'rganishda yangi yondashuvlarning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. Har qanday uslub ma'lum bir til funktsiyasini o'qitishga qaratilganligi sababli, til o'qitish tizimi boshqa odamlarning fikrlarini etarli darajada ifoda etish va o'z fikrini ma'lum bir tilda ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ roli ustunlik qiladigan turli usullardan kompleks foydalanishni o'z ichiga oladi

Talaffuzni o'rganish - bu rus tilini bir jihat bo'lib, eshitish va talaffuz qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan (eshitilgan til unsurlarini to'g'ri idrok etish, uni ma'no bilan bog'lash va mos ravishda takrorlash qobiliyati, tezlik, barqarorlik).

Agar fonetik (mazmunli) nutq eshitish rivojlangan bo'lsa va nutqning eshitish-akustik, vosita va fonemik tomonlari o'rtasida aloqalar o'rnatilgan bo'lsa, buning natijasida talaffuz yetarli darajada aniqlikka ega bo'lsa, fonetik mahurat

shakllangan deb hisoblanishi mumkin. Tinglash va nutq qobiliyatları darajasiga qo‘yiladigan talablar o‘qitishning maqsadlari va shartlariga bog‘liq, ba’zi hollarda ular maqbul talaffuzni belgilash bilan cheklenadi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, fonetika va uni o‘qtish juda katta soha bo‘lib, uni metodik qo‘llanma sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Dastlabki bosqichda lug‘atni o‘rgatishda bir qator vazifalar ajratiladi:

1) o‘quvchining kundalik nutqi va o‘quv faoliyati uchun minimal lug‘at bilan ta’minlash, shuning uchun tegishli mavzular bilan birlashtirilgan lug‘at tanlanadi va kiritiladi: "O‘qish", "Mening kunim", "Mening xonam", "Do‘kon", "Kiyim kechak";

2) bo‘lajak foydalanuvchi lug‘atining o‘zagini rus tilida ona tili bo‘lmagan til sifatida yaratish;

3) nutqiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning leksik asosini ta’minlash;

4) grammatika o‘qitishning leksik bazasini yaratish.

Asosiy tayyorgarlik leksik mashqlar:

a) bo‘shliqlarni to‘ldirish mashqlari

(kerakli so‘zlar xotiradan olinadi);

b) savol-javob mashqlari (javobda ishlab chiqilgan so‘zlardan foydalaniladi);

v) yangi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish mashqlari;

d) yangi so‘zlarni qo‘srimcha, holat vazifasida qo‘llash orqali nutq qoliplarini kengaytirish mashqlari;

Leksik mashqlar kommunikativ mashqlar deyiladi, uning mazmuni o‘quvchining kiritilgan va o‘zlashtirilgan leksik birliklar asosida vaziyatli shartli nutq faoliyatini amalga oshirish amaliyotidan iborat. Lug‘atni faollashtirish yangi so‘zlar ustida ishlashning yakuniy bosqichidir. Leksik birlikni doimiy o‘zlashtirish uchun o‘rtacha 15 dan 25 martabagacha takrorlash kerak, degan tushuncha an’anaviy darslarda saqlanib qolgan. Ammo innovatsion metodlar shuni ko‘rsatadiki,

doimiy ravishda so‘zning o‘zinigi takrorlash talaba xotirasida so‘z saqlanib qolishini ta’minlamaydi.

Gerbert Spenser: “Ta’limning asosiy maqsadi bilim emas, balki olingan bilimlar asosidagi harakatdir” deb aytgan. Bu fikrni rus tili grammatikasini chet tili sifatida o‘qitish bilan bog‘liq muammolarga to‘liq bog‘lash mumkin.

Grammatika (yun. gramma — yozma belgi, qator, chiziq)

1) tilshunoslikning fleksiya shakllari, so‘zlarning tuzilishi, so‘z birikmalarining turlari va gap turlari haqidagi bo‘limi;

2) tilning tuzilishi, so‘zlarni o‘zgartirish, so‘z shakllarini shakllantirish va so‘zlarni iboralar va jummalarga birlashtirish uchun tilda ob’ektiv ravishda ishlaydigan qoidalar tizimi.

O‘qitishning maqsadi grammatikani o‘rganish va matnlarni ona tilidan xorijiy tilga tarjima qilish orqali til tizimini o‘zlashtirishga qisqartirildi. Bu o‘qitishning grammatik turi deb ataladigan bo‘lib, unda grammatik shakl va tuzilmalarni o‘zlashtirish ustuvor vazifaga aylandi.

Xulosa qilganda. Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablarda rus tili grammatikasini o‘rgatishda interfaol usullaridan foydalangan o‘qituvchi dars davomida o‘quvchini fanni o‘rgatishda yaxshi natijaga erishadi. O‘quv jarayonining samaradorligi asosan o‘qituvchining darsni to‘g‘ri tashkil etish va darsning muayyan shaklini to‘g‘ri tanlash qobiliyatiga bog‘liq. Darsslarni o‘tkazishning noan’anaviy shakllari nafaqat o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishini oshirish, balki ularning ijodiy mustaqilligini rivojlantirish, turli bilim manbalari bilan ishlashni o‘rgatish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Babkina N. V. O‘quv jarayonida rivojlanayotgan o‘yinlar va mashqlardan foydalanish // Boshlang‘ich muktab-1998 — № 4.
2. Baranova E. A., Bojenkova L. F., Lebedev V. I. Rus tili metodologiyasi. — M., 1974. Bondarenko S. M. Muktabda rus tilini o‘qitish metodikasi. — M., 1979.
3. Vlasenkov A. I. Rus tilini o‘qitishni rivojlantirish. — M., 1983. Granik G. G.

- 3.Usmonova, D. (2022). PRINCIPLES OF DIVISION OF WORD CATEGORIES IN UZBEK LANGUAGE. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(2), 60-65.
- 4.Satvoldievna, U. D. (2020). A typological analysis of body parts names in English as part of somatic phraseology. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 32-34.
- 5.Satvoldievna, U. D., & Ugli, M. K. M. (2020). Comparative analysis of stylistic devices of the English language poetry. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 34-36.
- 6.Usmonova, D., & Samijonov, M. (2022). INTERACTIVE APPOINTMENTS OF THE IDIOMS IN ENGLISH AND THEIR ALTERNATIVES IN UZBEK. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 536-543.
- 7.Abbasova, N. K. (2019). The importance of techniques in developing critical abilities of the learners in teaching English proverbs and sayings. *Мировая наука*, (9), 3-6.
- 8.Kabilovna, A. N. (2020). Methodology of teaching proverbs and sayings of English in general education schools. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 67-69.
- 9.Аббасова, Н. К. (2020). ИНТЕРАКТИВНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 49-53).

**O'SMALAR O'SISHINING TEZLIGI, O'SMALAR PROGRESSIYASI.  
XAVFLI VA XAVFSIZ O'SMALAR XUSUSIYATI VA TASNIFI**

**Akramov Abdullo Ahmad o'g'li**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

E – mail: [abdulohakramov313@gmail.com](mailto:abdulohakramov313@gmail.com)

**Xamdamov Botirjon Nusratillo o'g'li**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

E – mail: [xamdamovbotirjon011@gmail.com](mailto:xamdamovbotirjon011@gmail.com)

**Annotatsiya:** Yillar davomida ishlab chiqarish va sanoat rivojlanmoqda, bu esa atmosferada turli gazlarning ko'payishini va tirik organizmdagi turli mutatsiyalar natijasida o'smalarning rivojlanishi va o'sishini rag'batlantiradi. Hozirgi vaqtida yomon shishlar tirik organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Organizmda xavfli o'smalarning ko'payishi odamlar va tirik mavjudotlarning hayotini tugatishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Papilloma, fibroma, lipoma, gibernoma, miksoma, mutatsiya, metastaz, o'smaning o'sish tezligi.

**TUMOR GROWTH SPEED, TUMOR PROGRESSION. CHARACTERISTICS  
AND CLASSIFICATION OF DANGEROUS AND SAFE TUMORS**

**Abstract:** Over the years, production and industry are developing, which is stimulating the increase of various gases in the atmosphere and the development and growth of tumors as a result of various mutations in the living organism. Currently, malignant tumors have a negative effect on the living organism. The increase of malignant tumors in the organism ends the life of people and living creatures.

**Key words:** Papilloma, fibroma, lipoma, hibernoma, myxoma, mutatsion, metastasis, tumor growth rate.

Tabiatdagi eng sirli hodisalardan biri bu o'smalardir. Nima uchun? – deyishimiz mumkin. Sababi, o'sma (tumor, neoplaziya, blastoma) organizmda hech qanday sababsiz, zaruriyat bo'lmashdan, hujayralarning nazoratsiz o'sishi va cheksiz ko'payishi bilan kechadigan patologik jarayondir.

Barcha o'smalar tuzilishi, nechog'lik tabaqalanishi, biologik xossalari va klinik o'tishiga qarab, ikkita asosiy guruhga – xavfli va xavfsiz o'smalarga bo'linadi.

Xavfli o'smalar xavfsiz o'smalardan farqli o'laroq, infiltrativ o'sishi, retsidiv berishi, ya'ni qaytalanishi, metastazlar berishi va organizmni o'ta ozib ketishiga olib keladi. Xavfli o'smalarning tuzilishi va funksiyasi jihatidan, tabaqalashmagan hujayralardan tashkil topadi. Ular uchun nainki to'qima atipizmi, balki hujayra atipizmi ham harakterlidir. Ularning o'sish tezligi tevarak – atrofga to'qimaning aynashiga, destruksiyasiga, infiltrlovchi o'sish tezligiga qarab o'sib boradi. Ular polimorf bo'lib, hujayralari katta – kichikligi va shakli jihatdan har xil, yadrolari giperxromdir. Yadro – sitoplazma nisbati normada 1:4, 1:6 ni tashkil etadigan bo'lsa, o'smalarda bu nisbat 1:1ni tashkil etadi, ya'ni ular teng holatda turadi. Bu ularning shakliga, yadrosining kattaligiga bog'liq bo'ladi. Xavfli o'smalar hech qachon xavfsiz o'smalarga aylanmaydi.

Xavfsiz o'smalar tabaqalashgan, o'zi paydo bo'lgan to'qimaga o'xshab ketadigan hujayralarni o'z ichiga oladi. Xavfsiz o'smalar atrofdagi to'qimalarni itarib, destruksiyasiz eksponsiv tarzda o'sish xususiyatiga ega. To'qima atipizmi ham xavfli emas, balki xavfsiz o'smalar uchun xos bo'lib, asta – sekin o'sadi va kapsula bilan o'ralib oladi.

O'smalar o'sish tezligi jihatidan xavfli va xavfsiz o'smalarda ikki xil bo'ladi. Xavfsiz o'smalar, odatda, asta -sekin o'sish xususiyatiga ega bo'lib, ular bir qadar katta bo'lishi uchun oylar va yillar kerak bo'ladi. Bu xususiyat bilan ma'lum bir holatlarda istisno holatlar ham mavjud bo'lib, xavfsiz o'smalar tez o'sib borishi mumkin. Bularga misol sifatida, bachardon leyomiomasi kiradi. Xavfsiz o'smalarning o'sish tezligi qon bilan qanchalik yaxshi ta'minlanishiga ham bog'liq. Masalan, gipofiz adenomasi qon bilan ta'minlanish darajasiga qarab har xil tezlikda o'sadi.

Xavfli o'smalarning o'sish tezligi esa ularni tashkil etgan hujayralarning qay darajada tabaqalanishiga, kinetik xossalariiga, mitotik siklning qancha davom etishi, o'suvchi qismlarning katta – kichikligi, o'smalarning halok bo'lib turishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, yuksak darajada rivojlangan o'smalar tuban darajada tabaqalashgan o'smalardan tezroq o'sib boradi. O'sma hujayralarning o'sish tezligi normal hujayralarning o'sish tezligi bilan bir xil (16 – 60 soat atrofida) yoki sal pastroq. Malignizatsiyaga uchragan bitta hujayradan diametric 1 sm keladigan o'sma paydo bo'lishi uchun yillar kerak bo'ladi.

O'sma hujayralaridan fibroma – asosan xavfsiz o'smalar tipiga kiradi. Bu o'sma nisbatan kam uchraydigan xili hisoblanadi. Uning paydo bo'lish joyi xilma – xil to'qimalarda, teri, bachardon, tuxumdon, sut bezi, me'da devorida bo'ladi. Fibromalar kapsula bilan o'ralgan, qattiq, kulrang tusli, elastik tuzilma bo'lib, kesib ko'rildganda yuzasi yaltiraydi. Qon quyilgan va nekrozga uchragan joylari bo'lmaydi. Miksoma – faqat kindik tizimchasi, perinevriy va yurak klapanlarida uchraydigan mucoid, ya'ni shilimshiq moddali to'qimadan kelib chiqadi. Bu o'sma parenximasida fibroblastlar va makrofaglar uchraydi. Fibroblastlar o'simtalarini bilan birga tutashib turadi va shaklan o'rgimchakka o'xshab ketadi. Lipoma bu – yog' to'qimasidan hosil bo'ladigan o'sma. Uning joylashishi bo'yin, gavda, yuz, qo'l terisi ostidagi kletchatkada, ba'zan esa qorin pardasi ostidagi bo'shliqda bo'ladi. Lipoma elastic bo'lib, kattaligi 3smdan 5smgacha bo'lishi mumkin. Yumaloq – tuxumsimon shaklda, kapsulasi nozik va yupqa bo'ladi. Gibernoma – qong'ir yog' to'qimasini bo'lib, qishki uyqu bezlarning rudimentar qoldiqlaridan o'sib chiqadigan o'sma hisoblanadi. Bu lipomalarning kamdan – kam uchraydigan turidir. Bu o'smaning joylashishi esa odamning orqasida yoki qo'ltiq soti sohasi (regio axillaris) da qo'ng'ir rangda bo'lishi mumkin. Uning sitoplazmasi uya – uya bo'lib, ichida mayda yog' tomchilarini bo'ladigan poligonal yirik hujayralardan tashkil topgan. Papilloma – epidermis hujayralaridan tuzilgan bo'lib, ostki qismi yo'g'on yoki ingichka tortgan gulkaram ko'rinishida bo'ladi. Mikroskopik jihatdan papilloma epitilial qatlama deyarli o'xshaydi. Hujayralari yetilgan bo'lib, mitozlar uchramaydi. Joylashishi bo'yicha teri, oraliq epiteliy, muguzlanmaydigan yassi epiteliy bilan qoplangan

shilliq pardalarda, buyrak jomlarida qovuq, siydik yo'llari va boshqalarda ham uchraydi.

**Xulosa:** O'sma odamning haddan tashqari ozib ketishiga, ya'ni kaxeksiyaga olib keladi. Inson tashqi muhit blan doim aloqada bo'lar ekan, sog'lig'i borasida doim qayg'urishi lozim. O'smalar insonning hayotiga ba'zan xavf solishi yoki o'z – o'zidan yo'qolishi ham mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.S.Abdullaxo'jayeva. Patologik anatomiya, darslik, Toshkent – 2012.pdf;
2. N.H.Abdullahayev. H.YO.Karimov. B.O'Irisqulov. Patologik fiziologiya, darslik, Toshkent – 2008.pdf;
3. A.Strukov. Patologik anatomiya, darslik, Toshkent – 1973.pdf;
4. M.Haqberdiyev. Patologik fiziologiya, darslik, Toshkent – 2009.pdf.

## **TOPINAMBUR HOSILDORLIGIGA MINERAL O‘G‘ITLAR TA’SIRINI O’RGANISH**

**Axmetova Nuriya Shinbergenovna**

Qoraqolpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada topinambur uchun mineral o‘g‘itlar so‘z etiladi. Topinambur o‘simligiga mineral o‘g‘itlarni qo‘llash doirasida hosildorlikga ta’sirini o’rganishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** Topinambur, mineral o‘g‘it, ammiakli selitra, ammaphos, kaliy sulfat.

## **STUDY OF THE EFFECT OF MINERAL FERTILIZERS ON JERUSALEM ARTICHOKE YIELD**

**Abstract:** The article mentions mineral fertilizers for Jerusalem artichoke. It consists of studying the effect of mineral fertilizers on Jerusalem artichoke plant on productivity.

**Key words:** Jerusalem artichoke, mineral fertilizer, ammonium nitrate, ammophos, potassium sulfate.

Dunyo mamlakatlarida oziq-ovqat, dorivor, em-xashak, texnik va manzarali o‘simlik sifatida topinambur yuqori potensialga ega bo‘lib, AQSh, Fransiyava Avstriyada ko‘p miqdord yetishtirilib kelinadi. Keyingi yillarda topinamburning ekin maydonlari Angliya, Germaniya, Polsha, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarda kengaymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sodan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash tog‘risida”gi strategiyada qishloq xo‘jaligi va

oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash borasida ko‘plagan ekin tu’rlarini yetishtirish ko‘zda tu’tilgan.

O‘zbekiston da topinambur bu'yicha ilimiylardan tadqiqotlar da'stlab O‘zbekiston O‘simlikshunoslik institutida R.F. Mavlyanova tomonidan olib borilgan. Topinamburning “Fayz-Baraka” va “Mo‘jiza” navlari yaratilgan. Keyinchalik ushbu navlarning yetishtirish agrotexnikalari ishlab chiqilgan. 2011 jil 3 noyabrda O‘zbekistonda topinambur bu'yicha birinchi Respublika ilimiylamaliy konferensiyaning o‘tkazilishi respublikamizda bu ekinga bo‘lgan etiborni, tadqiqotlarni rivojlantirish va eksport va import o‘rnini bosadigan maxsulotlar ishlab chiqilishi uchun zamin yaratilganligidan darak beradi.

Topinambur o‘simgilini yetishtirishda mineral va organik o‘gitlarni qo’llash samarali natija beradi. Biz ta’jribamizda topinambur o‘simgili uchun mineral og‘itlarni tanlab oldik. Bunda biz ta’jribada azotli o‘gitan ammiakl iselitra  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ , ammofos  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  va kaliy sulfat  $\text{K}_2\text{SO}_4$  mineral o‘gitlarni tanlab oldik. Ta’jriba sxemasi 70X40 etib belgilab oldik. Topinamburga azotli o‘g‘itlarning 50 foizini ekish bilan birgalikda, qolgan 50 foizini esa oziqlantirish davrida beramiz. Biz tajriba uchun 5 variant ishlab chidik va mineral o‘g‘it meyorini belgilab chiqdik. O‘g‘it miqdori quyidagicha:

- I. Variant Boshqaruv
- II. Variant  $\text{N}_{200}\text{P}_{150}\text{K}_{100}$
- III. Variant  $\text{N}_{200}\text{P}_{150}\text{K}_{100}+\text{CuSO}_4\text{5\%}$
- IV. Variant  $\text{N}_{200}\text{P}_{150}\text{K}_{100}+\text{ZnSO}_4\text{5\%}$
- V. Variant  $\text{N}_{250}\text{P}_{150}\text{K}_{125}$

Biz ta’jribada mineral o‘g‘itlar bilan birgalikda mikroo‘g‘itni qo’llanishni maql topdik. Bunda uchinchi variant uchun mis sulfatining 5 foizli eritmasi va to‘rtinchi variant uchun rux sulfatining 5 foizli eritmasidan foydalanib ta’jriba olib boryapmiz.

Xulosa qilib aytganda biz ta’jribamiz orqali topinambur xosildorligiga mineral o‘gitlarning ta’sirini va mikroo‘g‘tlarning ta’sirin o‘rganish va kerakli o‘g‘it meyorini tog‘ri tadbiq etish u’stida ilimiylamaliy ishlarini olib boriyapmiz.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Jangabayeva A.S Qoroqolpog‘iston respublikasida tuproq shurlanishi sharoitida topinambur (Helianthus tuberosus L) o‘simligining yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish. Monografiya Toshkent 2020 B 11-13
2. Elmuradov A.A. Topinambur-tsennaya kultura dlya biobezopastnosti produkto v pitaniya. O‘zbekiston qishloq xo‘jalik jurnalining Agro ILM ilovasi. Toshkent 2016 №3 (41) 48-49 b
3. Elmuradov A, Berdimuradov E Topinambur-yuqori va sifatli ozuqabop ha’m dadorivor o‘simlik. Agro Ilm jurnali 2019 №6 34-36 b

## IMOM UL-MUHADDISIYN HAQIDA

**Mamasidiqov Fazliddin Muzaffar o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti,

Ijtimoiy fanlar fakulteti, Tarix yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, IX asrda hadis ilmida katta muvoffaqiyatlar qozongan, musulmon dunyosida “amir al-mo‘minin” nomiga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy va uning “Al-Jome’ as-sahih” asari xaqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zi:** Imom al-Buxoriy, Buxoro, hadis ilmi, “Sahihi-Buxoriy”, musofirlilik, Hijoz, Makka, Madina, Samarqand, Xartang, yodgorlik, xalqaro markaz, axloq, oila.

Hadis<sup>6</sup> ilmida sahih<sup>7</sup> yo‘nalishning asoschisi, yetuk va mashhur muhaddis Imom al-Buxoriy musulmon dunyosida “Amir ul mo‘minin”, “Imom al muhaddisiy” deya ta’riflangan istedodli, ziyrak olim, ustozlari va do‘stlari orasida ilmi orqali xurmat qozangan o‘tkir zehin sohibi hisoblangan.

Imom al-Buxoriyning asl ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba’zan imom al-Muhaddasiy (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba’zan amir ul-mo‘miniyn fi-l-hadis (hadis ilmining amiri, sulton) va nabasi Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdir.

Imom al-Buxoriy ilm-fan va madaniyat ravnaqida azaldan mashhur bo‘lgan Buxoro shahrida tavallud topgan. Mana shu muhtasham shahar – Buxoroi sharifda 194-xijriy sana, shavval oyining 13-kunida saloyu-ul-jum’adan keyin (810-millodiyl sana 21-iyul) jami muhaddislarning imomi, Payg‘ambar (s.a.v)ning muborak hadislariga durdonasimon sayqal berib, ularni abadul abad barxayot qilgan zot imom al-Buxoriy dunyoga kelgan<sup>8</sup>.

<sup>6</sup> Hadis - arab tilida “xabar, xikoya” ma’nosini anglatadi. Bu so’zga sinonim tarzida “Sunnat” so’zini ham qo’llaydilar va u arabchada “yo’l, odat, xabar” ma’nolarini bildiradi.

<sup>7</sup> Sahih – ishonarli hadislar.

<sup>8</sup> Uvatov U. O’zbekiston- Buyuk allomalar yurti. – Toshkent: Ma’naviyat-Movaraunnahr, 2010. – B. 8.

Imom al-Buxoriy 10 yoshidan boshlab hadislarni o‘rgana boshlaydi. 11 yoshidan esa ba’zi ustozlarining xatolarini topa boshladi. Abu Ja’far Muhammad ibn Abu Xotamal-Varroq shunday deb yozadi: “Al-Buxoriyning “Hadislarni yod olish ilhomni menga boshlang‘ich mакtabda o‘qiyotganimda kelgan edi”, – deganini eshitganimda, “O‘sanda necha yoshda edingiz?” – deb so‘radim. U “10 yoshda, balki undan ham kichik edim”, – deb javob bergandi”<sup>9</sup>. Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, Imom al-Buxoriy juda yoshligidan boshlab hadislarni yod olib, bu mashg‘ulotga alohida zavq-shavq va qiziqish bilan qaragan.

Al-Buxoriy hadis ilmini dastlab Buxoroda o‘rganishga kirishdi. Bu shaharda yashagan muhaddislar Muhammad ibn Sallom al-Poykandiy (777-839) va Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy al-Ju’fiy (843-yili vafot etgan) dan hadis ilmini o‘rganib, ko‘p hadislarni yod oldi<sup>10</sup>.

Manbalarda yozilishicha, al-Buxoriy balog‘at yoshiga kirguncha o‘z davrining barcha mashhur kitoblarini to‘liq o‘rganib chiqqan, 16 yoshida akasi Ahmad va onasi bilan xaj safariga yo‘l olgan. U Balx, Basra, Kufa, Bog‘dod, Xums, Damashq, Qohira, Makka va Madina kabi yirik shaharlarda mashhur olimlardan islom ta’limotini, ko‘proq hadis ilmini o‘rgandi.

Al-Buxoriy musofirlik hayotining ko‘p qismini Makka va Madina shaharlarida o‘tkazdi. Bu yerda ilm olish bilan bir vaqtida o‘zining asarlari uchun ma’lumot to‘play boshladi. Suriyalik olim Jamoliddin al-Damashqiy o‘zining “Al-Buxoriy hayoti” asarida allomaning: “O‘n sakkizga kirganimda “Saxobalar va tobeinlarning muammolari”ni keyinroq esa “Katta tarix”ni yozdim. O‘sha vaqtda Madinai Munavvarada Payg‘ambar alayhissalom qabrlariga yaqin joyda yashardim. Asosan oydin tunlarda yozuv bilan mashg‘ul bo‘lardim. Tarixda men bilmagan nom juda kam edi. Lekin kitob uzayib ketishini istamadim...”, degan so‘zlarini keltiradi. Bu ma’lumot al-Buxoriyning ilm-fan yo‘lidagi katta g‘ayrat va shijoatidan darak beradi.

Al-Buxoriy qaysi shaharga bormasin, asosiy maqsadi ilm o‘rganish bo‘lib, o‘sha yerdagi shayxlar, olimu fozillar xuzurida turgan. Masalan, al-Buxoriy arab xalifaligi

<sup>9</sup> Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази, 2009. – Б. 9.

<sup>10</sup> Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази, 2009. – Б. 25-26.

poytaxti Bog‘dodga sakkiz marotaba borgan va har safar fiqhshunos olim Imom Ahmad ibn Xanbal xuzurida mehmon bo‘lib, hadis ilmidan saboq olgan. Imom al-Buxoriy “Men hadislarni 1080 ta muhaddisdan yozib oldim” – deb xotirlaydi o‘z asarlarining birida.

Oradan yillar o‘tib, u o‘z yurti Buxoroga qaytgan. Buxoro xalqi ham buyuk muhaddisni mamnun kutib olgan. Bu yerda al-Buxoriy talabalarga hadis ilmidan dars bergen.

Buyuk muhaddisning so‘nggi kunlari xaqida Abu Toxirxo‘ja Samarqandiy o‘zining “Samariya” asarida shunday yozadi: “.....u Xartangga (xozirga Poyariq tumani) kelib turdi. Shu yerda Haq rahmatiga vosil bo‘ldi... Imom Muhammad 256-yilda (milodiy 869-yil) Ramazon hayitining kechasi xufton namozidan keyin vafot etdi”<sup>11</sup>.

Mustaqillik sharofati bilan Imom Buxoriya yuksak ehtirom sifatida Samarqandning Chelak tumani Xartang qishlog‘ida Imom al-Buxoriy yodgorligi majmui barpo etiladi. Ushbu yodgorlik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-apreldagi “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq allomaning maqbarasi o‘rnida barpo etildi. Majmua 1998-yida ochilgan. Yodgorlik majmui avvalo ziyoratgoh, qadamjo, so‘ng kundalik, juma, hayit namozlari o‘qiladigan joy vazifasini o‘taydi. Umumiy maydoni 10 ga ni tashkil etadi. Majmuada maqbara, mamuriy bino, masjid, kutubxona, ilmiy xodimlar xonasi va boshqa yordachi honalar mavjud. Masjid va peshayvonida 1500 gacha kishi namoz o‘qishi mumkin. Masjid ichidagi mehrobning o‘ng tomoniga O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovga Saudiya Arabistoni podshohi Faxd ibn Abdul Aziz tuxfa qilgan kisva – kabapush parchasi osib qo‘yilgan<sup>12</sup>.

Shuningdek, Buxoriyning boy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida 1998-yil 4-noyabrda Imom Buxoriy xalqaro markazi tashkil etildi.

<sup>11</sup> Самарқандий Абу Тохирхўжа. Самария. – Т.: Мерос, 1991. – Б. 58.

<sup>12</sup> Ислом энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ, 2004. – Б. 110.

Imom al-Buxoriy avlodlarga qimmatli va boy ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, u yozgan asarlarning soni 20 dan ortiqdir. Musulmonlar diniy idorasi kutubxonasida allomaning “Al-Jom’ as-Sahih” (“Ishonchli to‘plam”), “At-Tarix al-Kabir” (“Katta tarix”), “At-Tarix as-Sag‘ir” (“Kichik tarix”), “Al-Qiroatu xalfa-l-Imom” (“Imom ortida turib o‘qish”), “Raf’ul-yadani fis-Saloti” (“Namozda ikki qo‘lni ko‘tarish”) kabi asarlariiing qadimiy nusxalari mavjuddir.

Imom al-Buxoriyning “At-Tarix al-Avsat” (“O‘rta tarix”), “At-Tavsir al-kabir” (“Katta tafsir”), “Al-Jome’ al-Kabir” (“Katta to‘plam”), “Kitobul-Xiba” (“Hadiya kitobi”) kabi katta va kichik xajmlardagi bir qator kitoblar yozganligi tarix kitoblaridan ma’lum<sup>13</sup>.

Imom al-Buxoriyning islom olamida mashhur qilgan va buyuklikka olib chiqqan asari shubxasiz, “Al-Jome’ as-Sahih” (“Ishonarli to‘plam”) bo‘lib, “Sahihi Buxoriy” nomi bilan ham mashhur. Ushbu asarni Buxoriy 16 yil davomida yozadi. Uning g‘oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom Buxoriygacha o‘tgan muhaddislar o‘z to‘plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o‘tirmay kiritaverганлар. Imom Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo‘lib, ularni ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratgan. Al-Buxoriyning shogirdlari ta’kidlashicha, ul kishi yuz mingta sahih (ishonchli) va ikki yuz mingta nosahih (shubhali) hadisni yoddan bilgan hamda “Al-Jome’ as-Sahih” ni tahminan olti yuz mingta hadislar orasidan saralab olgan<sup>14</sup>.

Alloma Ibn Saloh (1245-yil vafot etgan) ta’kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo‘lib, takrorlanmaydigan xolda esa 4000 hadisdan iborat<sup>15</sup>.

Al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asari sunniylar tomonidan e’tirof etilgan “Sihohi sitta” (“Olti sahih kitob”) ning birinchisi hisobланади.

Islomshunoslarning yozishicha, “Al-Jomi’ as-Sahih” oldingi hadis to‘plamlaridan ko‘ra mohirona tuzilgan. Muallif zamondoshlarini juda qiziqtirgan

<sup>13</sup> Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий ҳалқаро маркази, 2009. – Б. 31.

<sup>14</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydulayev O’. Vatan tarixi. – №1. — Toshkent: Sharq, 2010. – В. 187-189.

<sup>15</sup> Носиров К. ҶХ асрларда Ўрта Осиё мутафаккирларининг ахлоқий тарбия хақидаги ғоялари (Ал-Бухорий ва ал-Форобий асарларн мисолида). – Т.: Фан, 2000. – Б. 58-59.

qonunchilik **va** odatlarga tegishli bo‘lgan hadislarnigina emas, balki Muhammad alayhissalom va sahabalar tarjimai xoliga, xattoki, payg‘ambar yashagan davrning tarixiy va etnografik jihatlariga oid hadislarni ham jamlagan.

“Al-Jome’ as-Sahih”da payg‘abarirozning hadisi shariflari “Iyomon”, “Tahorat”, “Namoz”, “Zakot”, “Haj”, “Nikoh”, “Taloq”, “Savdo-sotiq kitobi”, “Sulh kitobi”, “Vasiyat kitobi”, “Dastlabki yaratilish” (ya’ni “Olamning paydo bo‘lishi”), “Jihod”, “Maloikalar haqida”, “Suv haqidagi hikmatlar” kabi 100 ta bobga bo‘lingan. Har bir bobda mavzuga doir hadisi shariflar ishonchli roviylar manbai bilan keltiriladi.

Imom Buxoriy to‘plamlariga kiritgan hadislar faqat islom ta’limotiga doir umumiyligi qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, sahiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota-onalik, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halolikga da’vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Ularda nima yaxshi, nima yomon, nima qilish kerak, nimadan o‘zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimmiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘l yo‘riqlar, pand-nasihat va o‘gitlar aks ettirilgan.

“Sahihi-Buxoriy”da oila masalasi – er va xotin, ota-onalik va farzand, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlar xaqida ko‘plab ibratli hadislar keltirilgan. Xususan,

Adab kitobi, 2-bob. Yaxshi muomala qilinishiga kim haqliroq?

Abu Hurayra rivoyat qiladilar: “Bir odam Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning huzurlariga kelib: Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilishimga kim haqliroqdir?” – deb so‘radilar. Janob Rasululloh “onang!” – deb aytdilar. U: “Yana kim?” – deb so‘radilar. Janob Rasululloh: “Onang!” – dedilar. U “Yana kim?” – dedi, Janob Rasululloh (bu safar): “Otang!” – deb javob qildilar.

3-bob. Ota-onasi rozi bo‘masa, jihod qilmaydi.

Abdullohibn Amr rivoyat qiladilar: “Birodam Nabi sallallohu alayhi va sallamga: Jihod qilmoqchiman”, – dedi. Janob Rasululloh: “Ota-onang bormi?” –

dedilar.U “Ha” deb aytди. Janob Rasululloh: “(Avval) ota onangning xizmatini qilib, rozi qilgin, so‘ng jihod qilgin!” – dedilar”<sup>16</sup>.

11-bob. Qarindoshlariga beoqibat kishining gunohi haqida.

Jubayr Ibn Mut’im Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning “Qarindoshlariga oqibatsiz odam jannatga kirmaydi” deganlarini eshitgan ekanlar<sup>17</sup>.

24-bob.Yetim boqqan odamning fazilati.

Sahl ibn Sa’d rivoyat qiladilar: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Men va yetimning kafilini olgan odam ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz” – deb ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini juft qilib ko‘rsatdilar”<sup>18</sup>.

Buyuk mutafakkir va muhaddis Imom al-Buxoriy o‘z asarlarida inson axloqi masalasini keng yoritib bergan. Olim insonni ahloqiy yetuklikka erishmog‘i uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni birma-bir sanab o‘tar ekan, har kim saqlanishi lozim bo‘lgan va insonni tubanlik, tanazzul sari tortuvchi illatlarni ham yaqqol ko‘rsatib beradi. Imom al-Buxoriy merosidagi inson ahloqiga oid fikrlarni faqatgina ibodat yoki diniy amallar, deyish xatodir, chunki u sanab o‘tgan fazilatlar umuminsoniy qadriyatlardan bo‘lib, ular butun bashariyat tomonidan tan olingan va har bir inson uchun zarurdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ислом энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ, 2004.
2. Носиров К. IX-X асрларда Ўрта Осиё мутафаккирларининг ахлоқий тарбия хақидаги ғоялари (Ал-Бухорий ва ал-Форобий асарларн мисолида). – Т.: Фан, 2000.
3. Уватов У. Ҳадис илмининг сultonи. – Т.: Имом Бухорий халқaro маркази, 2009.
4. Самарқандий Абу Тоҳирхўжа. Самария. – Т.: Мерос, 1991.

<sup>16</sup> Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg’ani Abdulloh tarjimasi. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririyati, 1992. – B. 55. [www.Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com) kutubxonasi.

<sup>17</sup> Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg’ani Abdulloh tarjimasi. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririyati, 1992. – B. 58. [www.Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com) kutubxonasi.

<sup>18</sup> Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg’ani Abdulloh tarjimasi. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririyati, 1992. – B. 61. [www.Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com) kutubxonasi.

5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg‘ani Abdulloh tarjimasi. – T: Qomuslar bosh taxririysi, 1992.
6. Uvatov U. O‘zbekiston- Buyuk allomalar yurti. – T: Ma’naviyat-Movaraunnahr, 2010.
7. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydulayev O‘. Vatan tarixi. – №1. — Toshkent: Sharq, 2010.



## GENDER EQUALITY

**Akhadova Madinabonu**

Student, 4th year, Faculty of Private Law, Tashkent State University of Law,  
Tashkent, Uzbekistan.

**Settiyeva Sevara**

Student, 4th year, faculty of private law, Tashkent State University of Law,  
Tashkent, Uzbekistan.

**Rozmetova Asal**

Student, 4th year, faculty of private law, Tashkent State University of Law,  
Tashkent, Uzbekistan.

**Abstract.** Description of gender equality as a value of law.

The trend is in the article. The right to differences in the aspect of gender issues in the law is considered. The main components of gender equality are characterized.

**Key words:** gender, gender equality, human rights, gender symmetry.

**Izoh:** Gender tengligining huquq qiymati sifatida tavsifi.

Maqlolada tendentsiya mavjud. Qonunda gender masalalarini hisobga olish nuqtai nazaridan farqlanish huquqi ko‘rib chiqiladi. Gender tengligining asosiy tarkibiy qismlari tavsiflanadi.

**Kalit so‘zlar:** gender, gender tengligi, inson huquqlari, gender simmetriyasi.

*«All people have their dignity and rights  
they are born free and equal. They have been given reason and conscience, so  
they should treat each other in the spirit of brotherhood».*

***Universal Declaration of Human Rights, Article 1***

The purpose of the article is to clarify the anthropological approach to understanding gender equality; analysis of the right to differences in the discourse of gender approach in the legal field; describe the components of gender equality; study of gender equality as a legal value. It is known that gender equality is achieved when women and men are given equal conditions, treated equally and have equal opportunities. In turn, this is for women and men allows you to show your ability. In short, "Gender equality" is based on the fact that all people have equal rights and opportunities at home and in society.

Currently, in our country, gender equality, that is, women

and establishing equal rights of men remains an urgent issue. In turn, we will learn the meaning of the term "Gender". It is known that the term "Gender" was introduced into scientific use by American psychologist Stoller in 1968 and means "sex".

*Below, we will define the concept of "Gender".*

The concept of "gender" represents the social aspects of relations between men and women in all spheres of society's life and activities, including politics, economy, culture, education and science. In other words, the concept of gender does not only represent the interests of women. Perhaps, it means that it is necessary to allow representatives of both sexes to achieve their dreams and goals.

Based on the above, we can draw the following conclusion: "Gender" is a socially used definition for women and men. This concept does not mean the biological characteristics of women and men. On the contrary, the concept of gender is based on the concept of tasks and functions of women and men in society, public and personal life.

One of the requirements of all developed societies is the provision of equal rights for men and women. Uzbekistan was one of the first among Central Asian countries to implement a number of measures to give women equal rights with men. For example, in 1995, Uzbekistan ratified the Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (SEDAW). A number of its articles were included in the legislation.

In recent years, the issue of gender equality has risen to the level of state policy in our country. To date, 25 legislative acts have been adopted. The establishment of new structures within the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, such as the Women's and Gender Equality Committee, the Ministry of Neighborhood and Family Support, the Republican Women's Public Council, promotes women's rights and gender equality in Uzbekistan. became the only integrated mechanism of provision.

We can see the "Strategy for achieving gender equality in Uzbekistan until 2030" adopted at the 15th plenary session of the Senate in 2021 as a continuation of the reforms being carried out to ensure women's rights and gender equality in our country. This document is based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Guarantees of Equal Rights and Opportunities for Women and Men",

It was developed in accordance with the priority tasks of the country's development and the national goals in the field of sustainable development until 2030, as well as other legal documents, defined in the Strategy of Actions for the five priority directions of the development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021. Also, this Strategy helps to fulfill the Beijing Declaration, the Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination of Women's Rights and the UN Sustainable Development Goals.

It is known that in May 2021, the Senate approved the strategy for achieving gender equality. Adoption of this document was an important stage in the development of gender policy in our country. In the strategy, the state in such directions as providing women with decent work, increasing the level of coverage of our girls with higher education, appointing them to leadership positions, including through the temporary quota system, and supporting low-income and women in need of social protection the important aspects of the activities of the structures for 2021-2030 are reflected. These areas will become priorities in the near future, and the Strategy envisages equal participation of women and men in the implementation of these processes and at all levels of decision-making. Another key feature of the strategy is the prevention of violence and human trafficking.

**Summary.** One of the main values of law today is the equality of men and women. The implementation of gender equality is not only a requirement of social justice and a necessary component of democracy, but also means approaching the goal of sustainable human development, realizing the possibilities of organizing social relations based on the principles of justice, honesty and tolerance. Gender equality requires a radical new way of thinking that sees development as a process of expanding freedom of choice for both sexes. Gender equality as a right is a crucial step towards the development of a democratic, gender-oriented society.

**1. Regulatory and legal documents:**

- 1.1. Constitution of the Republic of Uzbekistan (08.12.1992);
- 1.2. Lecture on human development. Uzbekistan. 1999. Tashkent.

**2. List of used literature:**

- 2.1. Lecture on human development. Uzbekistan. 1999. Tashkent;
- 2.2. Merenkov A.V. Sociology stereotypes. – Yekaterinburg: Izd-vo Ural. Un-ta, 2001, p. 161;
- 2.3. Klesina I.S. Gender socialization. Uchebnoe posobie. S.-Peterburg, izd-vo RGPU im. A.I. Gersena, 1998. p. 19;
- 2.4. Klesina I.S. Gender socialization. Uchebnoe posobie. s. 19;

## ODAM SAVDOSI

### **Axadova Madinabonu Asror qizi**

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Toshkent.

### **Settiyeva Sevara Faxriddin qizi**

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Toshkent.

### **Rozmetova Asal Anvarzoda**

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Toshkent.

**Izoh:** Ushbu qo'llanma keng jamoatchilikni odam savdosi hodisasi haqida ma'lumot berish, shuningdek, bugungi kunda butun dunyo aholisining e'tiborini tobora ko'proq jalg etayotgan ushbu hodisaning rivojlanishining oldini olish va oqibatlarini yumshatish maqsadida tayyorlangan.

**Kalit so`zlar:** odam savdosi, gender tengligi, inson huquqlari, kamsitish, zo'ravonlik, pullik jinsiy xizmatlar.

**Abstract:** Three handbooks inform the Council about the phenomenon of human trafficking that is attracting worldwide attention today.

**Key words:** human trafficking, gender equality, human rights, discrimination, violence, paid sex.

*«Odamlarni qonun bilan emas,  
qonun oldida tenglashtirish kerak»*

*Boleslav Pashkovskiy*

**Maqsad.** Ushbu qo'llanmaning maqsadi odam savdosi kabi hodisa haqida to'liq ma'lumot berish emas, balki bunday ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan manbalarni ko'rsatishdir. Ushbu qo'llanmaning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchi va o'qituvchilarga odam savdosi kabi hodisa haqida ko'proq ma'lumot olish imkoniyatini berish, insonlarga nisbatan bunday jinoyatlar sodir etilishining oldini olish va ushbu hodisa qurbanlarini yordam berib normal ijtimoiy hayotga qaytarishdir.

Qo'llanma qiyosiy yondashuvni va odam savdosi muammosini ko'p tarmoqli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga tayyorlikni rag'batlantiradi. Muhokama uchun mavzular ham taqdim etilgan, chunki odam savdosi va ekspluatatsiyasi bilan bog'liq ko'plab masalalar hali ham bir yechimga ega emas.

Shunday qilib, bunday savollar ochiqligicha qolmoqda va ularga javoblar jamoatchilik muloqoti jarayonida shakllantirilishi mumkin. Ushbu muammoni o'rganish nafaqat pedagogika sohasida, balki jurnalistikada ham talab qilinishi mumkin, chunki odam savdosi muammosiga bag'ishlangan dasturlar hech qanday muammoga olib kelmasligi juda muhimdir.

Barchamizga ma'lumki, yutrimiz davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, O'zbekiston xalqi huquqiy va tarixiy davlat qurishdek vazifani o'z oldiga qo'ydi. Bunday davlatni barpo etish uchun jamiyat hayotini insonparvarlashtirish va demokratlashtirishga, jinsi, millati, mulkiy holati, ijtimoiy mansubligi, mavqeい va boshqalarga qarab kamsitishning har qanday shakliga barham berishga qaratilgan yangi huquqiy tizimni shakllantirish zarurligi maqsad qilib e'tirof etildi. Mustaqillik uchun suveren davlat va uning barcha fuqarolari hayoti barpo etiladigan butun huquqiy bazani tubdan qayta qurish zarurati tug'ilgan va bu borada salmoqli ishlar olib borildi: ko'plab qonun va qarorlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Ushbu qonun hujjatlarining barchasi respublikamizning yetuk huquqshunos olimlari va amaliyotchi yuristlari tomonidan chuqur ishlab chiqildi.


Bugun o'tmishga qaraydigan bo'lsak ancha-muncha ishlar qilingani va ularning natijalarini hozirgi hayotimizda mutloq ko'rishimiz mumkinligiga quvonadi odam. Uyda deyarli hammamiz: «Ey bolam biz ne zamonlarni ko'rmadik, odam ko'chaga

chiqishga cho‘chir edi, o‘girlik, odam savdosi avjiga chiqqan davrlarda yashaganmiz. Kuppa-kunduzi qo‘lingdan yoki bo‘yningdan narsalarni yulib olib ketishardi, kayerga borma dodingni hech kim eshitmas edi. Hozirgi kuningizda shukur kilinglar bolalarim» degan oltinga teng nasihatlarni eshitganmiz. Mustaqillika erishishimiz bilan, davlatdagi zo‘rovonliklarga, tartibsizliklarga butunlay barham berildi deya olmasakda, ammo bu borada ham salmoqli ishlar olib borildi, va bugungi kunga qadar olib borilmoqda, ayniqsa jinoiy harakatlar sezilarli darajada kamaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Odam savdosi dunyoning deyarli barcha mamlakatlari va mintaqalariga ta’sir ko‘rsatadi. 2010-2012 yillar davomida 124 mamlakatda odam savdosi qurbanlari aniqlangan va ular orasida 152 shtatdan kelgan odamlar bor edi.

Odam savdosi inson huquqlarining jiddiy buzilishi hisoblanadi. Yurtimizda odam savdosi haqida qonunlar qabul qilish, harakat rejalarini amalga oshirish va aholining xabardorligini oshirish bo‘yicha sezilarli sa’y-harakatlar amalga oshirilgan bo‘lsada, odam savdosi qurbanlari himoyasini ta’minlash uchun shoshilinch chora-tadbirlar ko‘rish zarur. Men mehnat muhojirlarining hayratlanarli va dahshatli munosabati haqidagi hikoyalarni, jumladan, ayol mehnat muhojirlarining zo‘rlangani, kaltaklangani va qynoqqa solingani haqidagi hikoyalarni eshitganman. Shu sababli, ekspluatatsiyaning barcha shakllari uchun odam savdosi uchun jazosiz qolmasligini oldimizga maqsad qilib olishimiz kerak deb hisoblayman.

O‘zbekistonda ichki odam savdosiga qaratilayotgan e’tiborning cheklanganligi va odam savdosidan xabardorlikning cheklanganligi jiddiy tashvish uyg‘otadi. Jinsiy

savdo asosan ko‘rinmas bo‘lib qolmoqda va ayollar va qizlarga nisbatan kamsituvchi munosabatda bo‘lish, jabrlanuvchilarni stigmatizatsiya qilish va kamsituvchi gender stereotiplari, ayniqsa, jinsiy ekspluatatsiya qurbanlariga ta’sir ko‘rsatish, odam savdosining jazosiz qolishiga imkon beradi. Amalda bunday



kamsitish qurbonlarning himoyalanish imkoniyatlarini cheklab, odam savdosining davom etishiga imkon beradi.

Yurtimizda jinsiy ekspluatatsiya maqsadida odam savdosi haqida ogohlilik cheklangan. Gender tengligi choralari, jinsiy va gender asosidagi zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash choralari ayollar va qizlar savdosi xavfini kamaytirishni ta'minlash uchun ko'proq sa'y-harakatlar talab etiladi.

Qashshoqlik, diskriminatsiya, ta'lif va ish bilan ta'minlanish imkoniyati cheklanganligi va ijtimoiy himoyadagi jiddiy bo'shliqlar tufayli qishloq ayollarining aksariyati norasmiy sektorlarda ishlaydi, jumladan, majburiy mehnat va jinsiy ekspluatatsiya uchun odam savdosi xavfiga duch kelishi mumkin. Qolaversa, qolgan erkak muhojirlarning bevalari, ajrashgan ayollar va mehnat muhojirlarining oilalari ham alohida xavf ostida. Gender tengligini mustahkamlash va huquqlarni kengaytirish odam savdosining oldini olishda muhim ahamiyatga egadir.

Shuni aytib o'tish lozimki, odam savdosiga qarshi keng ko'lamdag'i choralar odam savdosining oldini olish, shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish maqsadida qabul qilingan. Odam savdosi uning eng tez-tez uchraydigan qurbonlariga nisbatan zo'ravonlik shaklidir, aksaryat hollarda ayollar va bolalar ularning qurboniga aylanishadi. Odam savdosi noqonuniy tadbirkorlik faoliyatining bir turi, bu uning qurbonlariga chuqr ta'sir ko'rsatadi, ularni psixologik va ularga jismoniy zarar va shikastlanish, shuningdek, xavfli OITS kabi kasalliklar tarqalishining o'chog'idir.

Odam savdosi gender tenglikning yo'qligi bilan bog'liq bo'lib, ham davlatlar ichki muhitida, ham davlatlar o'rtasida ochiq-oydin iqtisodiy tengsizlik, sud tizimining nomutanosibligidan kelib chiqadigan korruptsiya, zaiflik va huquqni muhofaza qilish tizimlari, va davlatlar tomonidan o'z vazifalarini bajara olmaslik o'z fuqarolarini himoya qilish va ta'minlash funktsiyalari ta'sir etuvchi omillardan biridir. Odam savdosining gullab-yashnashi – pullik jinsiy xizmatlarga bo'lgan talabni ortishiga sabab bo'ladi.

Davlatlar maqsadli keng qamrovli tuzilmani qurish choralarini va noqonuniy faoliyatni kamaytirish uchun hushyor bo'lishi kerak va bu borada yurtimizda keng qamro'vli ishlar olib borilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda, jamiyatimizda inson huquqlarig buzilishi, xususan, o'g'irlash, qullik va odam savdosi kabi dahshatli muammolar nafaqat dolzarb muammo bo'lib qoladi, balki ko'pgina yerlarda keng tarqalmoqda. Shunday ekan, bu salbiy tendentsiyalarga qarshi kurash davlat siyosatida oxirgi o'rinni egallamasligi kerak. Shunday qilib, jinoyat qonunchiligidagi va xalqaro darajada odam savdosi va qul mehnatidan foydalanish jinoyatlari juda batafsil o'rganilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Biroq, asosan tasniflash masalalari bilan bog'liq ba'zi qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, ular shubhasiz, qonunchilik bilan tartibga solishni talab qiladi. Ushbu harakatlar qonun hujjatlarida ham, yuridik adabiyotlarda ham batafsil tavsiflangan bo'lib, bu jinoyatlarning eng to'liq tasavvurini beradi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, shaxs erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi ushbu jinoyatlar har tomonlama chuqur o'rganilgan bo'lsada, kamchilik va qarama-qarshiliklarni to'g'ridan-to'g'ri bartaraf etish orqali kelgusida qonunlarni takomillashtirish va odam savdosiga qarshi kurashish yo'lidagi harakatlar to'xtab qolmaydi. Qolaversa, odam savdosi uyushgan transmilliy jinoyat bo'lib, unga qarshi ko'plab davlatlar kuchlarini birlashtirmoqda. Odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar ekspluatatsiyasining oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlar sifatida kelib chiqish, tranzit va boradigan mamlakatlarda xalqaro darajada kompleks yondashuv qo'llaniladi. Ushbu hodisaning oldini olishga, aybdorlarni jazolashga va ularning qurbanlarini himoya qilishga, shu jumladan umume'tirof etilgan inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tobora kengaymoqda .

## 1. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.1. Zdravomislova Ye., Temkina A. Sosial'naya konstruksiya gendera i gendernaya sistema Rossii // Gendernoe izmerenie sosial'noy i politicheskoy aktivnosti v perexodniy period. SPb., 1996, 7-betdan keltirilgan;
- 1.2. Gershunskiy B.S. Filosofiya obrazovaniya. M: «Flinta», 1998, s. 29;
- 1.3. Gusinskiy E.N., Turchaninova Yu.I. Vvedenie v filosofiyu obrazovaniya. M.: «Logos», 2000, s.96;

1.4. Husanov O. T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To‘ldirilgan va qayta ishlangan to‘rtinchi nashr. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. 400 bet. – 3 bet;

## **2. Elektron manbalar**

2.1. “Hetq online” (jurnalist tekshiruvi): [www.hetq.am](http://www.hetq.am)

2.2. “Aravot” gazetası: [www.aravot.am](http://www.aravot.am)

## OILAVIY AJRALISHLAR

**Axadova Madinabonu Asror qizi**

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Toshkent.

**Settiyeva Sevara Faxriddin qizi**

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Toshkent.

**Rozmetova Asal Anvarzoda**

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Toshkent.

**Izoh:** maqola ajralish kabi salbiy hodisaga bag'ishlangan. Bu oilaning jamiyatning asosiy bo'g'inining fojiali parchalanishi sifatida qabul qilinadi. Statistik ma'lumotlar va yurtimizdagi demografik vaziyat asosida zamonaviy oilalarda ajralishlarning asosiy xususiyatlari, sabablari, omillari va ba'zi oqibatlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** nikoh, ajralish, onalik kapitali, oila, statistika.

**Abstract:** the article is devoted to such a negative phenomenon as divorce. It is perceived as a tragic breakdown of the family, the main link of society. Based on statistical data and the demographic situation in our country, the main characteristics, causes, factors and some consequences of divorces in modern families are presented.

**Key words:** marriage, divorce, maternal capital, statistics.

**«Inoq oilada beshik bo`shamas»**

*O`zbek xalq maqoli*

Bir paytlar ajralishlar kamdan-kam uchraydigan va ko‘pchilik tomonidan qoralangan bo‘lsa, endi bu vaqt uzoq o‘tmishda qoldi, har yili yuz minglab oilalar buziladi.

Joriy yilning birinchi choragi va o‘tgan yilning shu davriga oid statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, munosabatlarni qonuniylashtirmoqchi bo‘lganlar kamroq, nikohni buzmoqchi bo‘lganlar esa ko‘p. Nikohlar va ajralishlar soni o‘rtasidagi farq yil sayin qisqarib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda fuqarolik nikohi modada. Ammo ko‘p odamlar fuqarolik nikohi er-xotinlarga bir-biriga nisbatan deyarli hech qanday huquq va majburiyatlarni bermasligini hisobga olmaydilar. Nikoh ikki kishi uchun qafasda umrbod qamoq jazosi emas.

Mutaxassislarning fikricha, xozirda har ikkinchi nikoh buzilyabti, o‘n yil oldin har uchinchisi odam ajrashgan edi. O‘sish juda katta - bir yarim baravar! Axir, bu baxtga umidlar uzilgan, begunoh azob chekayotgan baxtsiz bolalar.

Avvalom bor shuni yodda tutish lozimki, nikoh – shaxslararo va jinsiy munosabatlarni tartibga soluvchi eng qadimgi jamoat institutlaridan biri bo‘lib, oila qurish maqsadida er-xotinlar o‘rtasida jamiyat tomonidan tan olingan birlashma bo‘lib, bu nikoh juftligining o‘zaro huquqlari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi.

Barchamiz eshitganmizki, o‘tmishda odamlar juda chidamli bo‘lib, turmushiga xos bo‘lgan an’analarga va qadriyatlarga hurmat qilgan holda oilaviy munosabatlarni buzmaslikga harakat qilishgan. Ammo oxirgi yillarda o‘zbek jamiyatida oila tushunchasi o‘z qadrini birmuncha yoqotdi. Bunga sabab nima bo‘lishi mumkin?

Bir necha umumiy sabablarni yozib o‘tamiz. Nikohdan ajralish bo‘yicha sudga da’vo qo‘zg‘atishda asosan er-xotin bir-birlarini tushunib yetmasliklari, oilaviy munosabatlarga qaynota-qaynonalarning aralashishi, er yoki xotinning uzoq yillar xorijiy mamlakatlarga ketib qolganligi, ba’zi hollarda esa xiyonat sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda bolali er-xotinlarning ajralishi juda keng tarqalgan bo‘lib, kunma kun o‘sib kelmoqda. Bu haqiqat nafaqat bolalarga, balki ota-onalarning o‘zlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Veselin Georgiyev ta’kidlaganidek: «Ajralishdan keyin aybdorlar yo‘q, qurbanlar bor». Shu iqtibosdan shuni tushunsak bo‘ladiki oilaviy ajralishlar bolalarni ota yoki ona mehridan mahrum bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Bu esa hayoti davomida bolalarda psixologik buzilishlar paydo bo‘lishi, shaxsiy munosabatlarga zarar yetkazish, aybdorlik tuyg‘usini yaratish, salbiy xattiharakatlarga taqlid qilish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish, stressni qo‘zg‘atish yoki rivojlanishida regressiya natijalariga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib ajralish – bu o‘ta og‘ir holatlarda qo‘llaniladigan chora, chunki ajralishgacha har-hil munozaralar bo‘ladi, shu bosqichlardan so‘ng ajralishga ariza berishadi. Afsuski, bizning jamiyatimizda odamlar oila qurishga shoshilishadi va ko‘plab kulgili stereotiplar tomonidan boshqariladi. Masalan, ba’zi qizlar 25 yoshga to‘lgunga qadar turmush qurmasam qari qiz bo‘lib qolaman deb qo‘rqishadi. Shu sababli, qizlar turmush qurishga, farzand ko‘rishga shoshilishadi. Bu juda yoqimsiz oqibatlarga olib keladi. Bir so‘z bilan aytganda ajralish – bu tirik turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi haqiqiy nikohni rasmiy ravishda bekor qilish. Ajrashish uchun arizani fuqarolik sudiga berish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 41 moddasiga ko‘ra: «Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo‘q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi».

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 40 moddasiga ko‘ra, nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlar sud tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida da’vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi. Sud ishning ko‘rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli. Sud er-xotinga yarashish uchun muhlat tayinlab, ishning ko‘rilishini keyinga qoldirgan taqdirda, er-xotining birga yashash joyidagi fuqarolar yig‘inining yarashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo‘lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig‘inining yarashtirish komissiyasini er-xotinni yarashtirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish uchun uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, sud tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko‘rishda har bitta oilani saqlab qolish choralarini ko‘rish maqsadida taraflarga yarashishlari uchun muddat berish haqida ajrim chiqarilib,

ushbu ajrim ijro qilish uchun tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda tegishli mahalla fuqarolar yig'inlari raislariga yuboriladi. Umumlashtirib aytganda, yarashish komissiyasining asosiy maqsadlari bu fuqarolarning oilada va mahallalarda tinch-osoyishta, hamjihatlikda yashashiga ko'maklashish, oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda keng targ'ib etish orqali ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat bo'ladi.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlaridagi oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasining xulosasi sud uchun ishni mazmunan hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday bo'lsada, hanuzgacha tumandagi ayrim mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan taraflarni yarashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish va bu ishlarning natijalari bo'yicha komissiyaning yakuniy xulosasini sudga taqdim etishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Sud tomonidan mahallalarda bir necha bor tushuntirish ishlari olib borilganiga qaramasdan, sudning ajrimlari nomigagina muhokama qilinayotganligi, ushbu ajrimlar ortida oila va bolalarning keyingi taqdiri tursada, ular bo'yicha asossiz xulosa qilish va ayrim hollarda umumiyoq so'zlar bilan sudga javob qaytarish holatlari davom etmoqda.

E'tirof etish mumkinki, ajralish hamma uchun foydali bo'lgan holatlar mavjud. Bularga, birinchi navbatda, muammoli oilalarda yuzaga keladigan vaziyatlar kiradi. Masalan, agar turmush o'rtoqlardan biri spirtli ichimliklarni, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilsa, turmush o'rtog'iga, bolalariga zo'ravonlik qilsa, kaltaklasi, ajralish nafaqat nikoh uchun javobgarlikni qonuniy ravishda olib tashlash, balki o'z va bolasining hayotini saqlab qoladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bugungi kunda ajralishlar soni ko'payib bormoqda. 2022 yilning 26 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika tomonidan chiqqan ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning birinchi yarmida O'zbekistonda 24 572 ajrashish uchun ariza bergen. Toshkent, ajralish bo'yicha yetakchi mintaqalarga aylandi. Ikkinci o'rinda, Samarqand viloyati, uchinchi o'rinda Toshkent viloyati.

Agar o‘tgan yillarga nazar solsak, bu statistikadagi sonlar yildan yilga oshaverishini ko‘rishimiz mumkin.

**Xulosa.** Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, nikohdan ajrashish haqida ariza bilan sudga murojaat etgan har bir oilani yarashtirish va uni saqlab qolish uchun eng avvalo ularning ota-onalari, mahalla fuqarolar yig‘ini oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi hamda mahalla faollari bilan hamkorlikda ish olib borish oilalarni saqlab qolishda katta samara berishi hech kimga sir emas. Oilaviy hayot, albatta, qiyinchiliklarning mavjudligini istisno qilmaydi, shu bois xam ularni birgalikda hal qilish mumkin va hatto kerakdir.

### **1. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.1. Toriya J. N. Musulmon huquqi bo‘yicha nikoh va ajralish // Gumanitar va tabiiy fanlarning dolzarb muammolari. 2010. № 12. S. 304-308.
- 1.2. Katta izohli sotsiologik lug'at (Kollinz). 1-jild (A-O): trans. ingliz tilidan. Moskva: Veche, ACT, 1999 yil. Gershunskiy B.S. Filosofiya obrazovaniya. M: «Flinta», 1998, s. 29;
- 1.3. Oilaviy muammolarni hal qilishda yordam berish. [Elektron resurs]: Ajralish sabablari:

### **2. Elektron manbalar**

- 2.1. <https://daryo.uz/2022/05/06/ozbekistonda-2022-yilning-birinchi-choragida-nikohdan-ajralish-holatlari-eng-kop-qayd-etilgan-hudud-malum-qilindi/>

**ERTA NIKOH**

**Axadova Madinabonu Asror qizi**

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Toshkent.

**Settiyeva Sevara Faxriddin qizi**

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Toshkent.

**Rozmetova Asal Anvarzoda**

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Toshkent.

**Izoh:** Ushbu maqolada erta turmush qurish tendentsiyalari va erta nikoh bilan bog'liq omillar demografik va salomatlik tadqiqoti ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi. Logistik regressiya tahlilidan foydalangan holda ayollarning ta'lif darajasi, bolalik davridagi yashash joyi, mintaqa va turmush o'rtoq'i yoshidagi farq kabi tushuntirishlar yoritib berilgan. Ayollar bilimini oshirish va hayotning barcha jabhalarida gender tengligiga erishish muhim qadamlar sifatida namoyon bo'lib erta turmush qurish muammosini hal qilish va yosh nikohga barham berish tendentsiyalari ko`rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** nikoh, erta turmush, erta turmush tendentsiyasi, yosh nikoh

**Abstract:** This article analyzes trends in early marriage and factors associated with early marriage based on demographic and health survey data. Explanations such as women's level of education, childhood residence, region, and difference in spouse's age were explored using logistic regression analysis. Increasing women's education and achieving gender equality in all aspects of life are seen as important steps to solve the problem of early marriage and the trends to end early marriage are considered.

**Key words:** marriage, early marriage, early marriage trends, young marriage

«Oila – hayotning abadiyligini,  
avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan,  
muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan,  
shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga  
bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir.»

**Islom Karimov**

Erta turmush qurish, asosan qizlar duch keladigan muammo hisoblanib ayollar hayotida tengsizlik va kamsitishlarga olib keladi.

Oila – bu qon-qarindoshlik rishtalari bilan o'zaro bog'liq insonlarning kichik bir ijtimoiy guruhidir. U jamiyatning asosi hisoblanadi. Oilaning bosh vazifalari – bu aholini ko'paytirish va farzandlarni tarbiyalashdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 63-moddasiga ko'ra: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziliği va teng huquqliligiga asoslanadi».

Respublikamizda oilaviy huquqning asosiy manbai bu Oila kodeksidir. U 1998 yil 30 aprelda Oliy Majlisning sessiyasida qabul qilingan va 1 sentabrdan boshlab kuchga kirgan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligini belgilovchi maxsus modda kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3-moddasiga ko'ra: «Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqqa egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeい hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi».

Barchamizga ma'lumki, oila qurish inson hayotidagi eng mas'uliyatli ishlardandir. Yangi oila nikoh bilan barpo bo'ladi. Mutaxassislarning fikricha, yigit-qizlarning turmush qurish yoshi oila mustahkamligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Afsuski, ayrim ota-onalar ko'pincha farzandining kelajak taqdiri, baxt-saodati haqida o'ylamay, hali balog'at yoshiga yetmagan qizini uzatish yoki

qarindoshimning qizi begona bo‘lmasin, deb o‘g‘il uylantirish taraddudiga tushadi. Buning oqibatida qizlarni o‘n olti, hatto undan kichik yoshda turmushga uzatib yuborish hollari uchrab turadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, bu ko‘p hollarda bo‘lg‘usi onaning salomatligi va ruhiyatiga, qolaversa, yosh oilaning mustahkamligi, tug‘ilajak farzandning sog‘lomligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom farzandni tarbiyalash, har bir ota-onaning orzusidir. Shunday ekan, hali o‘zi bola bo‘lgan farzandlarimizni turmushga berish yoxud uylantirish natijasida ularga nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jihatdan ham juda katta zarar yetkazib qo‘yishimiz mumkin.

